

# Tadqiqat

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

SURUR

Ona zamin va tabiatga mehr-muhabbat, saxovat va muruvvat, bunyodkorlik va olijanoblik kabi xalqimizga xos ezgu fazilatlar eng qadimiy bayramimiz bo'lgan Navro'z timsolida asrlar davomida ulug'lanib, sayqal topib kelmoqda.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

## HAR BAHORDA SHU BO'LAR TAKROR...

"Navro'z" – yangi kun demakdir. Buni ko'pchilik yaxshi biladi. Yangi kunda fasllar almashib, o'to'lanlar jonlanadi; dehqon ezgulik dalasi – otiziga umid urug'ini ekadi; tabiat qo'ynida halovat topadi. Yasharishni, beg'uborlikni, yam-yashil o'simliklar, sirli hayvonot va jamodot olami tarovatini san'atkorning ko'zi ko'radi; ta'sirini tarannum etadi.



Koshg'ariy zamonidan hozirga dovur Navro'zda "turli chechak ochilib", atrofga "guldor gilam yoyiladi". Mumtoz shoirlar tili va dilida yana bir tilak: "Ilohi har kunning Navro'z bo'sun!" Dardli shoir Cho'lpon ko'klam uzra: "Ko'klam bilan yurtimga ham bir ko'karish kelsaydi, Ko'ngillar ham havolardek ko'klam hidi bersaydi, Dillarga ham havolardek ko'klam ruhi kirsaydi!" deb pokiza orzarularini sochadi.

(Davomi 3-sahifada.)

SHE'RIY LAHZA

CHO'LPON

## KO'KLAM KELADIR

Ko'klam oyim yo'lg'a chiqqan, ko'klam oyim qo'zg'alg'an;  
Ko'k ko'yakning bitishiga uncha ko'p ham qolmag'an!

Tiniq havo... ko'k yuzida oppoq, harir pardadek  
Oq bulutlar, unda-munda yoyilg'anlar parison.  
Shu'ialarning aksi bilan yitillagan ignadek,  
Kun tig'lari, qarashlarga o'tkur-o'tkur sanchilg'an...

Qip-yalang'och daraxtlar ham quchoq ochib, ko'z tutib,  
Ko'k ko'yakning bitishini chidamasdan kutalar.  
Qarg'alar ham qishda qilg'an gunohlarni unutib,  
Uzr aytmasdan, indamasdan, uchib-uchib ketalar.

Sezgilarni uyg'otguvchi hidli gullar to'planib,  
"Biz ham yo'lg'a chiqdik!" deya yuborg'anlar bir chopar.  
Gul hididan rizq emguchi jonivorlar uyg'onib,  
Erta-indin boqchalarga, chamanlarga tarqalar.

Ko'klam oyning ipak ko'yak etaklari sudralib,  
Qora yerning boshlarini silab-siypab keladir.  
U silashdan, u siypashdan quvvat olib, kuch olib,  
Qora yer ham ko'ksidagi oltinlarni beradir.

Ko'klam bilan yurtimga ham bir ko'karish kelsaydi;  
Ko'ngillar ham havolardek ko'klam hidi bersaydi,  
Dillarga ham havolardek ko'klam ruhi kirsaydi!..

1924

TAHLIL

## O'ZBEKISTONNING "YUMSHOQ KUCH" I

2016-yil prezidentlik lavozimiga kelgan Shavkat Mirziyoyevning islohotlari natijasida tarixiy Turkiston jug'rofiy mintaqasining yuragidan joy olgan O'zbekiston nomi tez-tez tilga olinmoqda. Bu holat ushbu mamlakat o'zining muazzam ta'sir imkoniyatlarini anglab yetgani va ularni namoyish eta boshlagani bilan izohlanadi.

"Yangi O'zbekiston" g'oyasi bilan muhim yangilanish jarayonini boshlab bergan Shavkat Mirziyoyev siyosati allaqachon olimlarning tadqiqot mavzusiga aylanib ulgurdi. O'zbekiston yetakchisining tashabbuslaridagi o'rnak olinishi kerak bo'lgan muhim jihatlardan biri "yumshoq kuch" siyosatidir.

Konstruktiv va muvozanatli tashqi siyosat olib borayotgan Prezidentning oqilona diplomatiyasi 7 yil avval mintaqada mavjud bo'lgan keskin muhitni bartaraf etdi. O'zbekiston nafaqat qo'shni davlatlar bilan barcha sohalarida hamkorlikni rivojlantirdi, balki Turkiya, Ozarbayjon va Vengriya kabi olis qardoshlari bilan ham aloqalarini yuqori darajaga ko'tarishga muvaffaq bo'ldi. Qolaversa, Shavkat Mirziyoyev ma'muriyati rivojlangan davlatlar bilan ham namunal aloqalarni yo'lga qo'yib, muvozanatli siyosat olib borishga e'tibor qaratmoqda.

Bu jarayonda O'zbekiston tomonidan "yumshoq kuch" elementlaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan siyosatning muvaffaqiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki yangicha boshqaruv davrida mamlakat barcha sohalar qatori tarix, madaniyat va turizm yo'nalishlarida ham jiddiy rivojlanish jarayoniga qadam qo'ydi. Natijada O'zbekiston xalqaro jamoatchilik hurmatiga sazovor, sayyohlar, investorlar va tadqiqotchilar uchun

jozibali hamda ta'sirchan mamlakatga aylanmoqda.

### "YUMSHOQ KUCH"NING AHAMIYATI

O'tgan asrning 80-yillari oxirida Harvard universiteti professori Jozef Nay tomonidan fanga kiritilgan "yumshoq kuch" tushunchasi biror mamlakatning o'z siyosiy, iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va boshqa mamlakatlarning munosabatiga ta'sir qilish uchun o'zaro madaniy aloqa, jozibador qadriyatlar va diplomatik munosabatlardan keng foydalanish qobiliyati sifatida ta'riflangan. Bugun "yumshoq kuch"ning muvaffaqiyatli amaliyotini butun dunyoda uchratish mumkin. Markaziy Osiyoda bu boradagi ilk namunal faoliyat O'zbekistonda olib borilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Mamlakatning boy merosi, kengayib borayotgan madaniy hamkorliklari, izchil va tinchlik-sevar tashqi siyosati allaqachon muhim jozibali unsur sifatida namoyon bo'lmoq-

da. O'zbekiston tarixiy shaxslar, cheksiz madaniy boyliklar, sayyohlik imkoniyatlari, ulkan iqtisodiy salohiyat, mehnatkash aholi va strategik joylashuvga ega. Ana shu omillardan o'rinni foydalangan O'zbekiston rahbariyati xalqaro jamoatchilik nazarida sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

### O'ZBEKISTONNING BREND SHAHARLARI

Har bir qarich yerida tarix ufurib turgan O'zbekistonning qadimiy shaharlari "yumshoq kuch" elementlarining eng muhim belgilaridan hisoblanadi. Bu shaharlar tarixda ham shoir va yozuvchilar ijodida tez-tez tilga olingan. Hofiz Sheroziyning "Agar ko'nglimni shod etsa o'shal Sheroz jononi, Qaro xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni" misralari bundan roppa-rosa olti asr oldin yozilgan. O'zbekistonda bu kabi she'r, qo'shiq va dostonlarga mavzu bo'lgan o'nlab dong'i ketgan shaharlar mavjud.

(Davomi 2-sahifada.)



VATAN MANZUMASI

## ER YIGITNING NOMUSI MILLATINI UYG'OTAR!

"Barchamiz, eng avvalo, Vatan himoyachisi, tinchlik posboni bo'lishimiz zarur".

Mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning ushbu so'zlari kuni kecha poytaxtimizdagi "Turkiston" san'at saroyida ilk namoyishi bo'lib o'tgan "Vatan manzumasi" deb nomlangan adabiy-ma'rifiy kechaning bosh g'oyasini tashkil qiladi.

O'tgan yildan boshlab mazkur adabiy-ma'rifiy dasturning keng miqyosda namoyish etilayotgani xalqimiz hayotida o'ziga xos ma'naviy hodisalardan biri bo'ldi desak, mubolag'asi yo'q. Chunki xalqimizning dard-u quvonchlari, millatning or-nomusi, ona Vatan sha'ni va sharafi tarannum etilgan she'rlar, go'zal kuy-qo'shiqlar va sahnalashtirilgan tomoshalarni o'zida mujassamlashtirgan dastur hech kimni befarq qoldirmaydi.

(Davomi 3-sahifada.)







# O'ZBEKISTONNING "YUMSHOQ KUCH" I



Boshlanishi 1-sahifada.

So'nggi paytlarda Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan bu shaharlar qayta tiklanib, diplomatiya, turizm, ta'lim, festival va kongresslar markaziga aylantirilmogda. Buxoroda qurilgan "Ko'hna va boqiy Buxoro" obidasi, Namangandagi "Afsonalar vodiysi" madaniyat va istirohat bog'i, poytaxtdagi "Toshkent city", Samarqandda barpo etilgan "Boqiy shahar" majmuasi va qad rostlagan yangi mehmonxonalar fikrimizni tasdiqlaydi. Bugungi Samarqand ham ajoyib o'tmishga, ham zamon talablarini o'zida mujassam etgan, yuksak saviyadagi tadbirlarni o'tkazish uchun barcha zarur sharoit va infratuzilmaga ega noyob shahar sifatida yangi mavqe va nufuz kasb etdi. O'zbekiston hukumati tomonidan ko'plab xalqaro sammitlar va davlat tashriflari uchun aynan Samarqand shahrining tanlanayotgani ham ana shu o'zgarishlar samarasidir. Bularning barchasi davlatning "yumshoq kuch" siyosatining tarkibiy qismi deb aytishimiz mumkin.

Samarqandning 2023-yilda Jahon sayyohlik poytaxti sifatida tanlangani va YUNESKO o'zining Bosh konferensiyasi sessiyasini so'nggi 40 yil davomida birinchi marta xorijda, aynan Samarqandda o'tkazishga qaror qilgani bejiz emas. Ayni paytda O'zbekiston Buxoro, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz kabi brend shaharlarini ham xuddi shu yo'nalishda rivojlantirish orqali o'zining "yumshoq kuch"ini boyitib bormoqda. Afg'oniston bilan chegaradagi Termiz shahri ham tarixiy vazifani bajaryapti. Bu kent Afg'onistonda ta'lim olish imkoniyatini topa olmagan yigit va qiz talabalar uchun ziyo markaziga aylandi. Bu kabi o'zgarishlar natijasida Yangi O'zbekiston tez orada Buyuk Ipak Yo'lining eng yorqin marvaridlarini namoyish etuvchi noyob manzilga aylanishi shubhasiz.

## O'ZBEKISTONNING MADANIY QADRIYATLARI



"Yumshoq kuch"ni tashkil etuvchi yana bir muhim omil bu – madaniyatdir. Mamlakatning tili, adabiyoti, san'ati, sporti, gastronomiyasi, tabiati va boshqa madaniy unisurlari uning xalqaro doiradagi jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistondagi o'zgarishlar jarayonida madaniy qadriyatlarni namoyish etuvchi xalqaro festivallar va tadbirlar soni ko'paygani e'tiborga molik. Bunday tadbirlar madaniyat va san'atni targ'ib qilish bilan birga, sayyohlarga o'zbek sivilizatsiyasi durdonalarini yaqindan kuzatish imkonini ham beradi. O'zbekistonda o'tkazilayotgan xalqaro festivallarda maqom va baxshi-

chilik, raqs an'analari, hunarmandchilik, gulchilik, gastronomiya, kino, ipakchilik kabi qadriyatlar keng tarqalib, ularning bevosita hukumat rag'batini ko'magida o'tkazilayotgani esa O'zbekiston "yumshoq kuch"ining madaniy asoslarini rivojlantirishga qat'iy qaror qilganidan dalolatdir. Prezidentning 2023-yil iyuldagi qarori bilan o'zbek askiya va milliy qiziqchilik san'atini targ'ib qilish maqsadida har ikki yilda bir marta o'tkazilishi rejalashtirilgan "Tabassum" xalqaro kulgi festivali bu yo'nalishdagi so'nggi muhim yangiliklardan biri bo'ldi.

## TABASSUM DIPLOMATIYASI



Yangi O'zbekistonning obro'-e'tiborini tobora yuksaltirib borayotgan muhim xususiyatlardan yana biri bu mamlakatning murosas va yechimga asoslangan tinchliksevar tashqi siyosatidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning chet elga tashriflari va xorijiy delegatsiyalar bilan uchrashuvlarida e'tiborga sazovor bo'lgan jihati – u kishining yuzidan aslo arimaydigan tabassumidir. Zero, bir o'zbek maqolida aytilganidek, "Ochiq chehra – boldan shirin". Xorijiy davlat rahbarlarining O'zbekistonga tashrifi chog'ida diplomatik nazokatni eng yuqori darajada aks ettiruvchi kutib olish dasturlari ham e'tiborga molik. Rasmiy dasturlardan tashqari, O'zbekistonning boy qadriyatlarini aks ettiruvchi madaniy chiqishlar barchani hayratga soladi. Xitoy, Fransiya va Qatar yetakchilarining Samarqandga tashriflari chog'ida, shuningdek, Ozarbayjon va Turkiya Prezidentlarining tarixiy Xiva shahrida kutib olinishida namoyish etilgan tantanali madaniy dasturlar xalqaro ommaviy axborot vositalari tomonidan havas bilan kuzatilgani rost.

## YANGI O'ZBEKISTONNING INSONPARVARLIK DIPLOMATIYASI

2023-yil 6-fevral kuni Turkiyaning Qahramonmarash shahrida sodir bo'lgan va 11 viloyatni larzaga solgan mud-hish zilziladan so'ng Yangi O'zbekistonning insonparvarlik diplomatiyasi yaqqol namoyon bo'ldi. Zarur resurslar safarbar etilib, o'zbek qatqaruvchilari Toshkentdan uchib bordi. Xatayning Ovakent mahallasidagi jabrdiydalarga ko'mak ko'rsatilib, yaradorlarni davolash, oziq-ovqat bilan ta'minlash, issiq kiyim-kechak, dori-darmon tarqatish kabi insonparvarlik va hamjihatlik faoliyatlari amalga oshirildi.

Cho'qay, Tohir Chig'atoy va Abdulvahob O'qtoyning hayoti, ijodi va fidokorona faoliyatini tadqiq va tahlil etadi.

Sobiq mustabid tuzumning tajovuzlari oqibatida 1924-yilgacha Vatani tark etishga majbur bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Misr, Germaniya va boshqa mamlakatlarda qo'nim topdilar. Usmon Xo'ja (1878-1968), Mustafa Cho'qay (1891-1941), Sadriddinxon Sharifxo'jayev (1878-1946), Zakiy Validiy To'g'on (1890-1970), Tohir Chig'atoy (1902-1987), Abdulvahob O'qtoy

(1904-1962) va boshqalar xorij matbuoti va o'zlari tashkil etgan jurnallar orqali Turkiston xalqlarining mustaqillik yo'lidagi kurashi va orzu-umidlaridan jahon afkor ommasini xabar-dor qilib, Turkistondan kelgan muhojirlarni ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'lishdi. Jumladan, "Yosh Turkiston" jurnali ham ana shunday matbuot nashrlaridan biri edi.

Kitobdan Vatani va xalq hayoti mavzusidagi she'rlar, Turkiston muxtoriyati, milliy istiqlolchilik kurashi hamda milliy

matbuot tarixiga doir maqolalar o'rin olgan.

Shu bilan birga, kitobda tarixiy siymolar tavsifiga ham keng o'rin berilgan. Jumladan, Ismoil G'aspirali, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Eshonxo'ja Xoniy, Sadrid-dinxon Muftiy Sharifxo'jayev, Obidjon Mahmud va boshqa taraqqiyparvar jaddilarga bag'ishlangan maqolalar ham shunday asarlar sirasidandir.

**Bahrom IRZAYEV,**  
Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi bosh ilmiy xodimi

## YANGI O'ZBEKISTON MAKTABLARI



Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelganidan so'ng alohida e'tibor qaratilib, izchil rivojlanayotgan soha – ilm-fan va ta'limdir. O'tgan yili yangilangan O'zbekiston Konstitutsiyasidagi eng muhim o'zgarishlardan biri ham o'qituvchilarning kasbiy maqomiga alohida e'tibor qaratilgani bo'ldi. Yangi davrda poydevori qo'yilgan va tarixda bo'lgani kabi yurtning yorug' kelajagini barpo etuvchi iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalashga qaratilgan Prezident maktablari ham bu borada e'tiborga molik yangilikdir.

O'zbekiston ilm-fan va ta'lim sohasida erishayotgan yutuqlarini qo'shni va qardosh davlatlar bilan o'rtoqlashishni ham e'tibordan chetda qoldirayotgani yo'q. 2020-yili O'zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan Tojikistonda maktab qurilib, tojik xalqiga sovg'a qilingan bo'lsa, 2022-yil Qirg'izistonda ham O'zbekiston mablag'lari hisobidan maktab barpo etildi. Shuningdek, Ozarbayjonning Fuzuliy shahrida O'zbekiston rahbari tashabbusi bilan barpo etilgan va ming nafarga yaqin o'quvchi tahsil olishiga mo'ljallangan maktabda joriy yil ta'lim jarayoni boshlab yuborildi. Maktabga jahon tarixida muhim o'rin tutgan buyuk siymo – olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek nomi berildi. Ushbu ta'lim diplomatiyasi o'zbek madaniyati va tarixini qadrlaydigan, Uchinchi Renessans davrini tushunadigan va O'zbekistonga do'st bo'lgan ziyolilar va olimlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda "yumshoq kuch" siyosati muvaffaqiyatli va namunali shaklda olib borilayotganini ta'kidlash zarur. Umuman olganda, bunday siyosat muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, hamkor davlatlarning qardoshlarimiz bilan yaqinlashish istagi ortib, islohotlar xalqaro miqyosda tan olinadi. Inchinun, "yumshoq kuch" nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, 2023-yilni Yangi O'zbekistonning e'tirof sanasi deb hisoblashimiz mumkin. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyevning ketma-ket ikki nufuzli xalqaro tashkilot mukofotlari – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining faxriy nishoni va Turkiy davlatlar tashkilotining "Turk dunyosi Oliy ordeni" bilan taqdirlangani O'zbekiston rahbarining 7 yillik muvaffaqiyatli faoliyati natijasidir.

**Ahmet AKALIN,**  
Turkiya televideniye va radio oliy kengashi (RTOK) mutaxassisi

## ADABIY DO'STLIK



Atoqli shoir G'afur G'ulom qiziga bag'ishlagan bir she'rida: "Qiz degan ko'ngilning qonidan bo'lur", deb yozgan edi. Darhaqiqat, Olmos opa dadasining shu ehtiromli ta'rifiiga mos farzanddir.

Olmos opa otasi haqidagi xotiralarda shunday yozadi: "Men dadamning ulug' kitobsevar olim, faylasuf, mutafakkir ekanlarini juda yaxshi bilar va bundan g'ururlanar edim. Dadam biror she'rida kitobni oftobga qo'fiya qilganmi-yo'qmi bilmayman, lekin kitobni bu qadar ulug'lagan insonni boshqa ko'rmadim". Kitob G'afur G'ulom uchun tiriklik suvi bo'lganini tasavvur qilish mumkin. Shunga monand Turkiyada nashr bo'lgan "Osmon to'la yulduzlar: G'afur G'ulom" nomli kitob ham Olmos opaga bir olam quvonch bag'ishladi.

2024-yil 26-27-fevral kunlari Anqaradagi Hoji Bayram Vali universiteti tashabbusi bilan xalqaro TURKSOY tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi hamkorligida ushbu kitobning taqdimoti bo'ldi.

Kitobga so'zboshi yozgan xalqaro TURKSOY tashkiloti rahbari Sulton Rayev G'afur G'ulom ijodining ko'lami haqida gapirib, asarlari mohiyatida millatlararo do'stlik, qardoshlik, insonning baxt-iqboliga doir qarashlar mujassamligini ta'kidladi. Hoji Bayram Vali universiteti professori Veli Savash Yelok kitobda berilgan "G'afur G'ulom" sarlavhali maqolasida adibning tarjimai holi, turli janrlarda yozilgan asarlari bibliografiyasi bilan turk o'quvchilarini atrofficha tanishtirdi. Ushbu kitobdan o'ndan ortiq o'zbek va turk olimlarining ilmiy maqolalari va G'afur G'ulomning mashhur she'rlari hamda hikoyalarning tarjimalari o'rin olgan.

Taqdimotda universitet talabalari shoir she'rlarini o'zbek tilida o'qishdi. Mezbon o'laroq Hoji Bayram Vali universiteti rahbariyati, ilmiy-pedagogik jamoa "Osmon to'la yulduzlar: G'afur G'ulom" kitobi taqdimotiga jiddiy hozirlik ko'rgani sezildi.

Darhaqiqat, so'z san'ati ularni, dillarni bir-biriga bog'laydi. Adabiyot katta yo'l chetiga qo'yilgan ulkan ko'zgu. Unda olam va odam aks etadi. Jumladan, unda G'afur G'ulomning ham nurli siymosi, bebaho merosi ko'zga yaqqol ko'rinadi.

Taqdimotdan mamnun bo'lgan Olmos opa tashkilotchilariga tashakkur bildirdi. Anjuman ishtirokchilariga "Osmon to'la yulduzlar: G'afur G'ulom" kitobini taqdim etarkan, shoirning ijod uyi har doim do'stlar uchun ochiq ekanini aytib, ushbu mashhur satrlarni takrorladi: "Do'stlar uchun jonim – niyozim, Bizning uyga qo'nib o'ting, do'stlarim".

Zero, G'afur G'ulomning ma'naviy dasturxonini barcha uchun har doim ochiq va do'stlarga muntazir.

**B.NURMUHAMMAD**

## YURTDOSHIMIZ TAQDIRLANDI



Turkiyaning Bursa shahridagi Uludag' universitetida Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va madaniyati markazi davlatimiz rahbarining buyuk alloma ma'naviy va ma'rifiy merosini kelajak avlodlarga yetkazish borasidagi tashabbuslarini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan edi.

Markazga Anqaradagi Hoji Bayram Vali universitetining san'at tarixi yo'nalishi bo'yicha doktoranti Surayyo Xo'jayeva rahbarlik qiladi.


Surayyo Xo'jayeva Navoiy ijodini Turkiyadagi vatandoshlarimiz, talaba yoshlar orasida ommalashtirish, turkiy xalqlar o'rtasidagi mustahkam madaniy, ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarini mustahkamlashga bag'ishlangan ijodiy tadbirlarni tashkil etishdagi faolligi uchun Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ta'sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Yurtdoshimizga ko'krak nishonini O'zbekistonning Istambuldagi bosh konsuli Sherzod Abdunazarov topshirdi.

**"Dunyo" AA**  
Istanbul

## BU KITOBNI O'QIDINGIZMI?

# "TURKISTON HURRIYATI YO'LIDA"



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Muslimbek Alijonovning "Turkiston hurriyati yo'lida" deb nomlangan kitobi chop etildi.

Kitob mundarijasi 1929-1939-yillar orasida Fransiyaning Parij shahrida nashr etilgan "Yosh Turkiston" jurnalidan olingan iqtiboslar va muallifning fikr-mulohazalari, izohlari bilan boyitilgan. Muallif uch tayanchi, uch atoqli shaxs – Mustafa





## HAR BAHORDA SHU BO'LAR TAKROR...

Boshlanishi 1-sahifada.

Xalq ta'biricha "Navro'zdan so'ng qish, mezon-dan so'ng yoz bo'lmaydir", "Yaxshi odam ko'zidan, yaxshi yil esa Navro'zidan" bilinadi. Odamlar qirlarga chiqib, sayllarda qo'shiqlar kuylaydi, Sumalakni yalaydi. "Yomg'ir-yog'aloq"ning musiqasi-ga o'ynaydi...

Bahor – uch yuz oltin besh kunning bolaligi. Bolalikda soflik, tozalik, beg'uborlik va go'zallik mujassam. Inson yoshi o'tgan sari bolaligini eslab qo'msaydi, qo'msab eslaydi. Biroq dunyoda na bir asbob-uskuna, na dastur va na bir tilsim o'tgan kunning, aylitgan so'zni ortga qaytaradi. Odam har yumushda jadallashib, imkon izlaydi, xayollari izmi-da ulkan rejalar tuzadi. Gohida "halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta" otadi... Oxiri tahirsiz bitikka, manglayidagi yozuvga ko'nikadi; shundan o'zga iloj ham, yo'l ham yo'q. Dunyoda yurakka ezgulik olib

Men har bahorda yam-yashil maysalarga, g'imirlab qolgan mitti qumursqa va hasharotlarga, juft-juft oppoq kapalakka, umuman, Yaratuvchi-ning boshqa g'aroyibotlariga yo'liqqanimda negadir o'zimni betakror san'at-naqshga duch kelgan-dek sezaman. So'z bilan tuyg'ular rasmini chizish, shoyista xayolga mahramlik, tafakkur mamlakati-da tasavvur bilan bolalarcha chopqillab poyga o'ynash, aniqrog'i, lahzani abadiyatga muhrash qo'limdan kelmagach, oddiy, sodda bahoriy li-bossiz so'zlar bilan g'o'ldirabgina qo'yaman, xo-los: Ko'klam...

Navro'z kunidagi tilak yangi, yaxshi, o'lmas, ramzli, zavq-shavqli; tafakkur va tasavvurning chin so'zi. Navro'zning shukuhli kunlari – bepoyon osmondagi olamoq'shar – kamalak – Hasan-Husaynning o'q-yoyi; bamisoli yerni yorib chiqqan ko'malak (qo'ziqorin). Navro'zning musaffo tong-lari beshikdagi chaqaloqning ko'zlaridek top-to

Yangi kun – yangi tajribalar maydoni. Bu orom-baxsh maydonda dehqon ham, bog'bon ham, hokim bilan mahkum ham, o'quvchi va o'qituvchi ham, boringki, hamma istiqomat qiladi. Zotan, yangi kun – go'shangaga kelin bo'layotgan qizlar sepiga yordam uchun bir dona mayin patini atay osmondan tashlab uchgan qaldirg'ochning ezgu niyatidek eng bebaho va eng umidli kun.

Bepoyon kenglikka qarab yo'lga chiqqan Navro'z rost kun, chin kun, toza kun, botir kun, sodiq kun, do'st kun. "Ayamajuz olti kun – olti oy qishdan qattiq kun". Bahor kelinchagi manglayida qish bo'yi paxtali ko'rpasiga burkangan kampir kun-lar bilan taloh pallasi ham bor ekan-da! G'alaba nashidasi – yangi kunda. Aslida, ayamajuz shaf-qatsiz va yovuzdir. Gullagan og'ochlar boshida yumrig'ini do'laytirib, do'lbo'ron-u qorbo'ron dag-dag'asini qiladi u. G'addor ayamajuzning timog'i temir, nafs balo, niyati tuz emas. Issiq o'rmini haqdorga osongina berib qo'ymaydi. Ayamajuz teshaga qurdosh, ketmonga bo'yodosh, neki bor – barini yalang o'ziga tortadi...

Ammo... Ahay-a-hay... Ahay-a-ha-hay... Xalqimiz boshida qilich qayragan qaro kunlar, qish kunlar, kampir kunlarning ortda qolgan rost bo'lsin. "Ko'klam bilan yurtimizga ham bir ko'ka-rish" keldi; chin Navro'zimiz o'ttiz yoshdan oshdi.

Yana ko'ngillardan rutubet ketdi,  
Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z.  
Yana dildorlikning fursati yetdi,  
Demak, Bahor keldi,  
Kelmoqda Navro'z! (Abdulla Oripov).

Shoir aytmoqchi, Navro'z kelmoqda. Bayramo-na tantanalarga shaylangan O'zbekiston ahli bu ko'rkam-ko'klam bayramining shukuhini yurak-yurakdan sezib turibdi. O'zbekiston Respubli-kasi Prezidentining bu yilgi "Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida Yangi kunning: "Dunyoda murakkab vaziyat hukm surayotgan hozirgi tahli-kali davrda Navro'zning buyuk insonparvarlik mohiyati, o'lmas g'oyalari, odamzotni tinchlik va do'stlikni qadrlab, o'zaro ahillik va hamjihatlikda yashashga, hayotni yanada go'zal va obod qi-lishga undaydigan bunyodkorlik ruhi va falsafasi yer yuzidagi turli xalqlarning olijanob intilishlariga ham g'oyat uyg'un va hamohangdir", deya umu-minsoniy mohiyatiga urg'u beriladi.

Navro'z tongi quyoshidan ko'zlar quvonadi, ko'ngillar shodlanadi. Bunday musaffo tonglar tav-sifi uchun esa faqat go'zal va rubobiy so'zlarigina munosibdir.

Bahodir KARIM



kiradigan, ruhiyatni tozartiradigan, mudroq hujay-ralarni uyg'ollikka chorlaguvchi palla – bu bahor. Kun bilan tun tenglashgan bir fursat – yil boshida ko'katlar jilmayadi, qirlarda qizg'aldoqlar yal-yal yonadi, chuchmomalari qiqirlaydi, daryolar shovul-lab ashula aytadi, o'riklar gullaydi – "Har bahorda shu bo'lar takror" (H.Olimjon). Bunda har qanday odam bir lahza bolalikka qaytadi, zavqlanadi; hazin xirgoyisi beixtiyor otashin qo'shiqqa aylanadi. Bahor har kimga belgidir bolalikni eslatadi; orastalik va go'zallikdan saboq beradi. Bahor o'z nomi bilan yangi kun – Navro'z, erkin va ozod kun.

za, oydin, ma'nili, yoniq, boshqacha... Darvoqe, iste'dodli bir shoir akamiz e'tifor etgan oyoq os-tida sochilib yotgan she'riyat degani, ehtimol, shudir.

O'rgimchak to'riga ilingan bugungi ayrim odam-larning mudrayotgan sezimlari, uyqusiragan ko'z-lari bahor nafasidan, qushlarning chug'ur-chug'ur sasidan uyg'otsa ne tong?! Navro'zi ay-yom o'z nasimi, nafasi, yomg'iri, yildirimi, qo'yinki, butun tarovati bilan yuraklarni erkka, mehr-mu-habbatga, muruvvatga, odamiylikka, yoshlikka, bolalikka oshno etadi.

YANGI NASHR

## Qadaming qutlug' bo'lsin, "VATAN"!



Keyingi yillarda mamlakatimiz madaniy hayotida ko'plab e'tiborga molik voqealar ro'y beryapti. Yaqinda yurtimizda "Vatan" deb nomlangan yangi jurnalning nishona soni nashrdan chiqarilgani ham shundan dalolat beradi. O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining sa'y-harakati bilan dunyoga kelgan mazkur nashrdan milliy o'zlik, ona yurtga muhabbat tarannum etilgan maqolalar, hikoya va she'rilar o'rin olgan. Uning ilk sahifasi qardosh ozar shoiri Akif Bag'irning "O'zbek kelavotir..." nomli she'ri bilan ochiladi.

Shuningdek, jurnal sahifalarida atqo-li ma'rifatarparvar adib Abdurauf Fitratning "Yurt qayg'usi", O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Imtihon", Muhammad Yusufning "Ulug'imsan, Vatanim!" she'rlari, Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasi, taniqli adib Xay-riddin Sultonovning "Onamning yurti" hikoyasi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murodning "Yurt qo'shigi" badiasi-ni o'qiganimizda vatanparvarlik, elpar-varlik, millatparvarlikning go'zal ruhiy surati ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Yangi nashr sahifalarida qo'shni va qardosh xalqlar vakillarining dil so'zlari, ziyolilarimizning mulohazali maqolalari, olimlarning tadqiqotlariga ham keng o'rin berilgan. Xususan, qozog'istonlik ijodkor Dolimjon Sayfullayevning "Hamjihatligimiz boqiy bo'lsin!", tojikistonlik Ilhom Yusupovning "Bizning ham jurnalimiz bo'ladi", Qirg'iziston va O'zbekiston yozuvchilar uyushmalari a'zosi Begijon Ahmedovning "Biz Turkiston tog'lari va keng cho'llarida birga yashaymiz" nomli maqolalari o'qishligi bilan ajralib turadi.

Folklorshunos olim Jabbor Eshon-qulning "Undan ayro baxt bo'lmas" nomi-li maqalada Vatani sarhadlari ko'ngilda boshlanib, ko'ngilda tugashi, shu bois ham ajdodlarimiz azaldan ko'ngil tar-biyasiga alohida e'tibor qaratgani, Alpo-mish – muqaddas yurt haqidagi doston ekanligi alohida ta'kidlanadi. Professor Qozoqboy Yo'ldoshev esa "Buzilmas

qo'rg'on" maqolasida o'zbek tilining ifo-da imkoniyatlari kengligini e'tirof etib, milliy til ravnaqiga nisbatan ommaviy beparvolik, tasarrufdagi saviyasizlik va pala-partishlik kabi og'riqli nuqtalarga o'quvchi e'tiborini qaratadi. Eldor Asa-novning "Shayboniyxon shaxsiyati nega e'tiborsiz qolmoqda?", Feruza Jumani-yozovning "Ilohiy o'yin. Ko'pkarining tarixini bilamizmi?", Olimjon Davla-tovning "Adl ila olam yuzin obod qil..." maqolalari ham o'quvchini fikrlashga, mushohada yuritishga undaydi.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov: "Jurnalni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad jonajon yurtimiz – Yangi O'zbe-kiston imjini keng jamoatchilik va akade-mik doiralarda oshirishga hissa qo'shish hamda o'quvchilarni bugun dunyo ilm-fanida, siyosiy va ijtimoiy hayotda kechayotgan tendensiyalar bilan ya-qindan tanishtirishdir", deya ta'kidlagan.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu jurnal-ni o'qib, Vatani nima, bizning ota-boba-larimiz kim edi, qanday xalq edik, mil-latimiz qay kunlarni boshidan kechirdi, kelajagimizning yorqinligi nimalarga bog'liq, degan savollarga javob topa-miz. "Vatan" so'zini hamma ham ayt-a-olam, ammo bu so'zni yurak-yurakdan his etish, uning yukini ko'tarish og'ir. Shu bois, og'ir va sharafli mas'uliyat-ni zimmasiga olgan jurnal ijodkorlariga kuch va ijodiy yutuqlar tilab qolamiz.

M.IBROHIMOVA

Boshlanishi 1-sahifada.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa va-zirligi, Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uy-ushmasi, Kinematografiya agentligi ham-korligida tayyorlangan "Vatan manzumi" deb nomlangan adabiy-ma'rifiy kechani to-mosha qilib, ko'nglimdan kechgan o'ylarni yozgim keldi. Chunki bu dastur menga be-gona emas. O'tgan yili uning ishtirokchisi edim. Dasturni tayyorlash jarayonida chekil-gan zahmatlar, mashaqqatlarni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Tengdosh yosh shoirlar qatorida sahnada she'r o'qiganmiz. Buning hayajoni, quvonchi dasturda qatnash-gan barcha ijodkorlarning qalbidamo saqlanib turganiga shubham yo'q. Ayniqsa, butun mamlakatimiz bo'yab safarga chiqib, viloyatlar markazida dasturni namoyish et-ganimiz barchamiz uchun unutilmas taassu-rotlarga boy bo'lgan edi. Aytmoqchi bo'l-ganim, "Vatan manzumi" ko'pgina shoir-u san'atkorlarga mamlakatimiz bo'yab safar qilish, Vatanni yanada yaqindan tanish im-koniyatini tuhfa qilgandi. Axir, Vatan haqida she'r yozgan shoir, u haqda qo'shiq aytgan hofiz Vatanning bor bo'y-bastini ham ko'zi bilan ko'rib, tasavvur etishi kerak-ku asl-da. Bu yil ham sahnada she'r o'qigan yosh shoirlar ana shunday imkoniyatga ega bo'li-shadi.

Bu galgi tadbirning dasturi badiiy-g'oyaviy jihatdan yanada boyigani yaqqol sezil-di. Taniqli shoirlarning Vatan haqidagi o'tli she'rlari yoshlarning tilida jarangladi, ayrim navqiron qalamkashlar o'zlarining el-yurt madhiga bag'ishlangan sara she'rlaridan o'qishdi.

Adabiyot hamma zamonlarda katta kuch ekanligini isbotlab kelgan. Xalqimiz ko'ng-lidan munosib joy olgan shunday she'rlar borki, ularni o'qiganda ham, eshitganda ham

## ER YIGITNING NOMUSI MILLATINI UYG'OTAR!



yuraklardagi inja tuyg'ular junbishga keladi. O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdi-yevaning she'rini iste'dodli shoira Guljamol Asqarova sahnada o'qir ekan, ishtirokchilar ana shunday hissiyotlarni boshidan kechirdi: Har lahzada uyg'on! Har lahzada o's! O'stir Xudo degan shu mamlakatni!

Hassos ijodkor Sa'dulla Hakimning yosh shoir Muhammadali G'afforovning jarang-dor ovozi yangragan "Er yigit" she'ridan o'rin olgan quyidagi satrlar har qanday yigit qalbidamo Vatan, millat tuyg'usini uyg'ota o-lishiga ishonaman:

Butun millat yukiga yelka tutar er yigit,  
Er yigitning nomusi millatini uyg'otar.  
Shuningdek, Oydin Hojiyeva, Xosiyat Bobomurodova, Qutlibeka Rahimboyeva, Gavhar Ibodullayevlarning o'tli she'rlari-dan ham ajoyib kompozitsiya tuzilganki, Sitorabonu Shomurodova, Nozima Habibul-layeva singari qizlarimizning chiqishlarini to-moshabinlar gulduros olqishlar bilan qarshi olishdi.

"Alpomishlar yurti bu diyor" deb nom-langan kompozitsiya dasturining eng ta'sir-chan ko'rinishlaridan biri bo'ldi, nazarim-da. Mansur Jumayevning "Layli, ko'zlarining haqqi, Tahir bo'lib borarman" degan satrlari zamiridagi "qora ko'zlarining haqqi-hurmati men poklanib, oppoq bo'lib boraveraman" degan ma'noni uqgan kishi hayratlanishi ta-biiy. Shahriyur Shavkatning "Bugun boshda ozodliging bor, Yaxshi ajrat yaxshi-yomon-ni, Sendan boshqa ko'tarolmaydi O'n to'rt botmon O'zbekistonni!" degan da'vati to-moshagoini larzaga keltirgani chin.

Ona, ayol zoti kerak bo'lganda yigitlardek o't kechib, yurt himoyasiga o'tlanishini To'maris-u Barchinoydek qahramon momo-larimiz timsolida yaxshi bilamiz. O'zbekis-tonlik xotin-qizlar Ikkinchi jahon urushi yillarida ham mislsiz jasorat namunalari-ni ko'rsatganlar. O'zbek xalqining qahramon qizi Zebo G'aniyevaning shonli hayoti bun-

ga yorqin misoldir. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Gulbahor Ergulova ijro et-gan "Zeboxon noming uchun" qo'shig'i va unga ishlangan video-lavhalarda ana shun-day jasorat va qahramonlik go'zal tarzda badiiy ifodasini topgani uchun ham muxlis-larga juda manzur bo'ldi.

"Siz hamisha qalbmizdasiz!" deb nom-langan teatrlashtirilgan kompozitsiyada o'z davrida harbiy xizmatni o'tash chog'ida qah-ramonlarcha halok bo'lgan askar va ofitser-larning Vatan himoyachisi bo'lishga qaror qilgan farzandlari birin-ketin sahnaga chi-qib, o'zlarini tanishtirganida tomoshabinlar qalbin ma'yuslik va armon, shu bilan birga faxr-iftixor tuyg'ulari qamrab oldi.

Goh sokin, goh sho'x musiqalar fonida ijro etilgan she'rlar tadbir ishtirokchilari-ning yuragiga chuqur kirib borib, muhrilanib qoldi, deb mubolag'asiz ayta olaman. Ijti-moiy tarmoqlar ham bugun mana shunday chuqur mazmunga ega tadbirlar xalqimiz uchun juda zarur ekanligi haqida bong uril-di. Har bir chiqishni goh zavq-shavq bilan, goh ko'zida yosh bilan tomosha qilgan ishti-rokchilarning nigohidan adabiyot va san'at birlashganda naqadar katta kuchga ay-la-nishini, qo'yinki, xalqimiz she'r eshitishga naqadar chanqoq ekanligini his qilish qiyin emas edi. Ayniqsa, ushbu she'r, musiqiy namoyishlar zalda o'tirganicha sahnadagi xatti-harakatlarini katta qiziqish va hayajon bilan tomosha qilayotgan yoshlar uchun qanchalik foyda keltirishini tasavvur qilsan-giz, adabiyot va sa'atning xaloskor kuchiga yana bir bor imon keltirasiz. Zotan, "Vatan manzumi" yoshlarda toza fikrlar uyg'o-nishiga, Vatan tuyg'usi yanada bo'y ko'rsa-tishiga xizmat qilishi shak-shubhasizdir.

Shodi OTAMUROD,  
shoir





## SHUKUH

Yil – o'n ikki oy. Barchaga ma'lum oy-kun sanog'i... Zotan, har bir kun, har bir oy inson umrining bezagi bo'lishi mumkin. Lekin bizga Ramazoni Sharif o'n bir o'ying sultoni bo'lib ko'rinadi. Chunki bu oyda ezgulik, mehr-muruvvat, sabr-qanoat tuyg'ulari ortadi; odamning nafsini sinovga duch keladi. Yaxshilikka targ'ib ortadi, yomonlikdan qaytariladi. Elning duogo'y otalari, onalari har kuni yaxshi so'zni takrorlaydi. Ma'naviy poklikning rutbasi yuksaladi. So'zlar amalga ko'chadi.

Ma'lumki, insoniyat uchun to'qiyomatga dovur to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan, halol va haromni farqlab bergan muqaddas Qur'oni Karim shu oyda nozil bo'ldi. Ramazonda ro'za farz qilindi. Ro'za – farz ibodat, dini-miz ustunlaridan biri. Ramazon zimmasida bashariyat uchun ana shunday eng mahobatli, aziz va tabarruk ikki farahli yuk turibdi. Rasululloh (s.a.v.): "Ro'za – sabrning yarmi", deganlar. Bu ibodat jarayonida odam nafsini sabrga o'rgatadi; kun bo'yi lazzatdan, yeyish-ichishdan, hazchilikdan tiyiladi.

Umri kurashlarda o'tgan Bobur Mirzo yoshi qirg'dan oshganda yozadi: "O'n bir yoshimdan beri ikki Ramazon idini payopay bir yerda qilg'on emas edim". Bu atay qilinadigan fazilatli amalmi? Yoki bunga bezovtalikmi bois? Baharnav, e'tirof o'ylab ko'riladigan bir holat, albatta. Bu oy sharofati tufayli o'tgan asrlarda kurash maydonlarida qilichlar qiniga joylanib, qalqonlar panjara-ga ilindi; janjallar barham topdi, urishganlar yarashdi; xo'mraygan yuzlarga nimtabasum indi. Muhimi, Ramazon xotirjamlik oyi.

Bu oydagi ibodat nedir yemaslikning o'ziga emas, balki yomon so'z demaslik ham ibodatdir. G'iybat va yolg'on gapdan saqlanish ro'zaning hurmati sanaladi. Bema'ni gapni quloqlar eshitmagani, qing'ir yo'llar-

# O'N BIR OYNING SULTONI



ga qadamlar bosilmagani ma'quldir. Zotan, ora-orada yuz beradigan, kutilmaganda johilning jahli otiga mingan vaqtidagi vajo-hatiga nisbatan odob bilan javob beriladi. Shu yo'sinda Rasululloh (s.a.v.) aytganlarki: "Albatta, ro'za to'siqdir. Agar biringiz ro'za bo'lsa, yolg'on so'z gapirmasin, johillik qil-masin. Agar biror kishi u bilan urishsa yoki so'kishsa, "men ro'zadorman, men ro'za-

dorman", desin" (Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari). Insofiga shuning o'zi, ro'zadorning shu so'zi kifoya. Birovga yaxshilik qilgan odam o'zidan quvonsa, qalb uyg'oqligining alomati. Hayo, to'g'rilik, adl, mardlik iymonga kuch bag'ishlaydi. Oxirat obodligi va o'ziga munosib obro'yini o'yilagan odam har dam ehtiyot bo'lib odim otadi; moddiy va ma'naviy jabhalaridagi turli marazlardan

o'zini saqlab yuradi. Darvoqe, ro'zaning saqlovchi degan sifati ham bor.

Ramazon oyida jin-shaytonlar makriga birov chalg' olmaydi. Odamning qon tomirlaridagi ularning sayohati to'xtaydi; ko'ngil vasvasadan omonda bo'ladi. Qalbning sog'lom yoki marazgoh ekani ham shu zayl sinovdan o'tadi.

Ramazonda xayr-saxovat kuchayadi. Ko'ngil yomon gumonlardan tozalanadi. O'zi o'g'rining o'yi – gumon, iymondan alif ketsa – juda yomon. Tadabbur va tafakkurli kunlar fazilatli. Ming oydan yaxshiroq Qadr kechasi ramazon kechalarining haddi a'losidir. O'sha tunda Qur'on nozil bo'lgan. Ro'zador bu kechani sog'inadi; katta-kichik gunohlari kechirilishidan umid etadi; zikr, shukr va fikrga bog'lanadi.

Dil tubidan:

O'dirsa ham, lazzat berar o'q,

Talpinadi ko'kka – ko'ngil to'q.

Tangrim behad mehribon, ammo

Qadr tuni o'zga oyda yo'q (A'zam O'ktam), degan bir o'ktam sado keladi...

Kechga yaqin kun ufqqa cho'kayotgan mahal, ro'zador odamning jilovlanib turgan nafsini behad mamnun bo'ladigan bir pal-ladir. Har daqiq, har soniya imillab bazo'r o'tib-o'tmaydi. Kun bo'yi turli noz-ne'matlar yonidan parvoli-parvosiz o'tgan odamning ko'zlarini beixtiyor dasturxon uzra kezinadi. Odam o'zidan qisib nafsiga tanbeh beradi; bir nafas sabr qilsa, uni anvoyi noz-ne'matlar

bilan siylashidan va'da berib o'tiradi. Odam yutib qo'yadi, suvsab qaqragan tomoq qir-ladi. Vaqtdan yutish uchun ichdan zikr ay-tadi, ko'z ixtiyorsiz dasturxonga ketib-ketib qoladi. Shunda muazzinning shomga azo-ni eshitiladi; ro'zador "Allohumma laka..." duosiga qo'l ko'taradi. Duolar qabul bo'ladigan eng tabarruk pallalardan biri shudir. Mukofotlar beradigan fursati shudir. Ro'za ibodatlarining qabulidan umidlanib, shukrona aytilib og'iz ochiladi. Ro'zador odam bir qultum muzdav suvning tomog'idan o'tib, vujud a'zolarini oralab borayotgan yo'li-irmog'ini sezib turadi. Nafs orom oladi. Bunday huzur-halovatni boshqa mahal tanada sinab ko'rish qiyin. "Alhamdulillah" – barcha ne'matlar uchun shukrona shudir.

Albatta, iftorlik dasturxonlarini kuzatgan-siz, odamlar apil-tapil tamaddiga un-nab ketishadi; nafsiga berilgan va'daga binolan uni meva-cheva, issiq-sovuq, umuman, anvoyi ne'matlar bilan siylaydi. Diqqat qilin-sa, bor-yo'g'i besh yo'lti daqiq ichida urniqib turgan nafs orom topadi. Ketma-ket tortilgan taomlarni ko'rib ko'zi to'ygan odam o'ziga o'zi: "Shunga shunchami, ey baloi nafsim", deb qo'yadi...

Tarovehda xotirjam manglayini sajdaga qo'ygan odamning qalbi to'lqinlanadi. Tinch va osoyishta kunlar qadriga shukrona aytadi. Ramazon shunday boshlanadi.

**Bahodir NURMUHAMMAD**

## FIDOYILAR

## JALG'IZTEREK TIRGAGI

**Zulfiya Turdimurodova Eshjon do'kondor bilan Anifa muallimaning erka qizi edi. U Mo'ynoq tumanidagi Qorajar ovulida tug'ilgan. 16 yoshida maktabni tugatdi. O'qigan maktabida kuni uzaytirilgan guruhga ustoz kerak bo'lib qoldi va direktor a'lochi o'quvchisi bo'lgan Zulfiyani ishga qabul qildi. Oliy o'quv yurtida sirtidan o'qishni orzulayotgan qizga bu qo'l keldi. Chunki sirtqi bo'limga o'qishga kirish uchun bir yillik mehnat staji kerak edi.**



Zulfiya opa 1985-yili Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kirdi. Ikkinchi kursni tugatishi arafasida turmushga chiqdi. Ikki farzandi tahsil davrida dunyoga keldi va yosh kelinchak har ikki tug'ruqdan keyin kasallanib, bir yillik akademik ta'vil olishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, a'lo baholarga o'qigan talaba bo'lsa-da, universitetni shirin tashvishlar ortidan naq sakkiz yil deganda tugatdi. Maktabdagi ustozlik faoliyati esa davom etardi.

– 1998-yil edi adashmasam, uyimizga Jalg'izterek (hozirgi Yangiqal'a) dan bir cho'pon meni axtarib keldi, – Zulfiya opa hayotida katta o'zgarish sodir bo'lgan kuni shunday xotirlaydi. – Cho'pon ovulda kam odam yashashini, ayollar bolalarining olis-dagi maktabga borib-kelishidan xavotirla-nayotganini aytdi va mendan boshlang'ich sinf bolalariga ta'lim berishimni qattiq ilti-mos qildi. Boyaqshning zorlanib turganini ko'rib, bilmadim, ichim achidimi yo taqdir

boshqardimi, "Xo'p, borib bolalarinigizni o'qi-taman", deb va'da berib yuboribman. Tava-kalchi ekanimiz-da, turmush o'rtog'im bilan bolalarimizni olib, birato'la o'sha ovulga ko'chib boraveribmiz.

Ortga yo'l bor edi, biroq u bergan va'dasi-ni o'ylab qaytgisi kelmadi. Opa o'zini emas, sovuqda diydirab yurgan o'quvchi bola-larni o'yladi. U o'qituvchi bo'lib ishlamoqchi bo'lgan ovulda maktab binosi yo'q edi... Zulfiya opa tushkunlikka tushmadi. Ishni avval o'zi yashashi uchun uy va bir xona bo'lsa ham "qaqra maktab" – qamishli tom (qamish to'p-to'p bog'lanib, bir-biriga biriktirilib, so'ng tashqi tarafi somonli loy bilan su-

larni tashlab ketishga Zulfiya opaning ko'zi qiymadi. "Ertaga qish zabtiga olsa, izg'irin bolalarining suyak-suyagidan o'tib ketadi. Buginalar ham ta'lim olishi kerak-ku. Nima bo'lsak, shu jalg'iztereklik bilan bo'lalilik", dedi.

Biyyad sahroda transport qatnamaydi, buning ustiga yo'llar qum-tuproqli. Mo'ynoq Qoraqalpog'istonning shimoliy tumani emas-mi, qishi qattiq keladi. Ovul esa Mo'ynoq markazidan 30 kilometr uzoqda.

– Qizlarimni o'qitilmadim. O'zimiznikiga qo'shib bolalarimning ham hayotini shu ovul-ga baxshida qilibman, – suhbatimiz shu joy-ga kelganda Zulfiya opa biroz o'ksinganday bo'ldi. – Qizlarim Qorajar-ga qatnab o'qidi. Qiynaldik. Ularni oliy o'quv yurtlarida o'qi-tolmadim. Ammo kichkinamizning tahsiliga astoydil bo'lamiz, deb turibmiz.

"Qaqra-maktab" omonatgina edi.

U qo'y-qo'zi-yu, echki-ulog'ini sotdi. Mehnat ta'vilining pulini-da qo'shdi. Biroq bu urvoq ham bo'lmadi. Bankdan bir yilda to'lash

urdiridi va bir amallab tomini yo'ptirdi. Imoratu bitdi, lekin shiferga pul yetmadi. Maktab tomini qalin qilib suvatdi. Ammo baxtga qarshi, sharros yog'gan yomg'ir tufayli tomdan shovullab suv o'tib ketdi.

– Ish reja, konspekt daftarlarim – hammasi bir kechada suvga bo'kibdi. Yana kredit ko'tarmasam bo'lmadi. Bu gal besh yil muddatga oldim, – deydi Zulfiya opa.

Pulni tejab-tergab, ustiga yana bor-yo'qdan qo'shib shifer oldi, binoning shiftini, yerini, ichkari, tashqarilarini ta'mirlatdi. Shu tariqa ovloq ovulda ixchamgina ziyo maskani bunyod etildi.

Turli idoralarga yugurib kadastr hujjatlarini ham tayyorladi. Maktabni 9-umum-ta'lim maktabining uchinchi filiali sifatida rasmiylashtirdi. O'zi uchun olmagan kreditni maktab qurish uchun oldi. 26 yil shu yerda dars berdi. Chunki bolalar ko'p emas, lekin ularning yoshlari har xil. Opani qiynagan shu bo'ldi: bir muallim bir paytning o'zida bir necha sinfga dars o'tishi kerak.

Nima bo'lganda ham o'n to'rt xo'jalikdan iborat "Jalg'izterek" ovuli ahli Zulfiya opadan juda minnatdor. Axir, ovulning kichik yoshli bolalari Zulfiya muallim tufayli har kuni to'qqiz kilometr yo'l bosib, qo'shni ovulda-gi maktabga qatnash zahmatidan xalos bo'lishdi.

Hozir maktabda Zulfiya opadan tashqari yana besh nafar o'qituvchi bor. Ularning uzoq ovullardan qatnab ishlashini hisobga olib, kuyunchak opa ular uchun sharoit yaratishga harakat qiladi, uyida ovqat tayyorlab, ulashadi.

Zulfiya opa maktab binosi uchun sarflagan mablag'idan so'z ochmaydi. Faqat o'quv jihozlariga kelganda qiynalib qolib, tuman xalq ta'limi bo'limiga murojaat qilgani va davlat tomonidan ko'mak olganini aytdi.

Zulfiya Turdimurodova ana shunday fidoyi ayol. Uning ezgu ishlari ko'p. Kam ta'minlangan bir oilaning sakkiz farzandiga maktab darsliklari uchun to'lovlarni o'zi to'lab berdi, yer olib, sabzavot undirib, hosilini ovuldagi oilalarga bepul tarqatdi... Bu ishlarini o'zi aytmaydi. Uning saxovatpeshaligini ovuldoshlari, tumandoshlari so'zlab bermagan-da, xabarsiz ham qolardik.

Jonkuyar muallima bu yil 56 yoshni qarshiladi. Xizmatlari yerda qolmadi. 2021-yili "Qoraqalpog'iston xalq ta'limi a'lochisi", bir yil o'tib "O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Kimlardir o'zini imkoniyati keng shaharlarga urayotgan bir paytda chekka elatga el bo'lib, umrini sadqa qilgan Zulfiya opa kabi fidoyi ayollar bor bo'lsin. U filolog edi, buning ustiga she'r ham mashq qilardi. Yozgan she'ridan o'qib berishini so'raganimda, ich-ichida qolib ketgan hayajoni yuziga qalqib, yoyilib she'rlar o'qidi.

Zulfiya Turdimurodova qirq yil ta'lim sohasida faoliyat olib bordi. E'zozlab o'qitdi o'quvchilarini. Oyoqlaridan sovuq o'tmasin deb partalarning ostiga gilamchalar kestirib soldi. "E, bitta chekka ovulning uch-to'rtta bolasi deb yuramanmi", demadi. Har qanday muvaffaqiyatdan oddiy bir cho'ponning ovulim bolalari bilim olsin, deb qilgan ittimosini a'lo ko'rdi.

Ulamolarimiz "Masjid qurgan masjidning, maktab qurgan ham maktabning, ham ilmining savobini oladi", deyдилar. Opa bilan mohi Ramazon kunlarida suhbatlashganimizda ham bir hikmat bordek. Hikmatining siri duolar qabul bo'lajak rahmat va mag'firat oyida uning haqqiga qilinajak duolardadir, ehtimol.

**Muhayyo PIRNAFASOVA**



valadi) qurishdan boshladi. Albatta, iltimosini yerda qoldirmagan Zulfiya muallimaga o'z-gacha mehr qo'ygan ovul ahli qarab tur-madi.


O'shanda uchinchi farzandiga homilador edi u. Turmush o'rtog'i qaytib ketishni taklif qildi. Lekin ularga ishonib o'tirgan odam-

sharti bilan 10 million so'm miqdorida 36 foizli kredit olib, boshlang'ich sinflar uchun maktab qurishga kirishdi.

Olgan oyligi-yu topgan-tutganini yig'ib-terib, kreditga to'ladi. Ustiga ustak, jo'jabir-day jon – besh bolasi yeyman-ichaman deydi... Ishchi yollab g'isht quydirdi, devor

*Dunyoning eng madaniy mamlakatlariga nazar solsak, unda maorif va madaniyat ishlarini hukumat ustalaridan ko'ra ko'prog' jamoat ustalarida, maorif nazoratidan ko'prog' "Nashri maorif" uyushmalarida ishlanganligini ko'ramiz.*

**Munavvar qori ABDURASHIDXONOV**







IJTIMOIY TARMOQ

# KOINOT QUDUG'I

Iskandarning shoxi borligini bilib qolgan sartaresh ichida saqlay olmay, bu sirni kimsasiz sahradagi quduqqa aytdi. Shu bilan yengil tortib, undan qutuldim, deb o'yladi. Ammo unday bo'lmadi. Quduqdan qamish o'sib chiqdi. Shu o'rtada suruvini oldiga solib yurgan cho'pon qamishni kesib, nay yasadi. Uni chalganida "Iskandarning shoxi bor", degan sado chiqdi. Sartaresh ham, cho'pon ham bunday choqda o'zlarini bilmaslikka olib, nari ketdilar. Bori ayb nayda qoldi.

Odamzod paydo bo'lishining ilk davridayoq ibtidoiy ongining hali qorong'i puchmoqlarida Yer hodisalarining samo bilan bog'liqligini savqi tabiiy his-la payqab, imdodni o'sha yoqdan kutgan-icha, qo'rquv va vahima ichra umguzaronlik qilgani behuda emas. Endilikda ko'milib ketgan sahrada qudug'i o'rni koinot qudug'iga bo'shatib bergan ko'rinadi. Payqaganingizdek, bu quduqning nomi ijtimoiy tarmoq, deb ataladi.

Turli xalqlar turli davrlarda o'z taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib, hayot muammolarini turli yo'llar bilan hal etishga urinishgan. Xalqlarning madaniy darajasi va saviyasidan kelib chiqib, bu yo'llarning oqilona yoki aqlga muvofiq emasligi namoyon bo'lgan. Endilikda ustma-ust qalashayotgan bunday muammolarni bartaraf etishda "bo'shanib olish" vositasi ham qo'llanayotgani hech kimga sir emas.

Bu ahmiyatga molik, ehtimol, sog'liqqa foydali vositadir. Ammo aslo umum e'tirofidagi qadriyatlar va tushunchalarga emas.

Ma'lumki, mijozlarini davolash uchun ularning dardlarini eshitishdan erinmagan ulug' ruhiyatshunos Zigmund Freyd jinnilarning ichida qamalib yotgan dard-hasaratlaridan ularni bo'shatib, uzluksiz suhbatlar davomida qo'rquv-vahimasini nari ketkazgan, sog'lom hayotga qaytargan. Bu o'ziga xos fan, ruhiy muolaja usuli. Yoshlar boshini silayotgan keksalarning "dardingni olay" degan so'zlari ham bejiz emas. Naql qilishlaricha, qadim zamonda bir savdogar yigit bo'y yetgan qizga uylanibdi. Ular baxtli hayot kechira boshlashibdi. Kunlardan bir kuni savdogar olis yurtlarga savdo karvoni bilan uzoq safarga ketibdi. Qaytib kelsa, xotini u safarga ketganidan so'ng yarim yil ichida gulday so'lib, rangi za'faronlashib jon bergan ekan. Savdogar yigit endi boshqa bir ayolga uylanibdi va tag'in olis-olis yurtlarga savdo karvoni bilan yo'lga tushibdi. Bu gal qaytib kelsa, xotini damqasma kasaliga giriftor bo'lib, bir yil orasida olamdan o'tgan ekan. Uchinchi safar yana boshqa ayolga uylanib, yana safga o'tlanibdi. Bu gal ming hadik bilan



qaytib kelganida uni gulgun xotini qarshi olibdi.

– Sen qanday tirik qolding? – so'rabdi savdogar.

– Men har kuni xamir qorganimda, undan kichkinagina zuvala ajratib olib, qo'g'irchoq yasay edim, – debdi xotini. – So'ngra ana shu qo'g'irchoqqa ichimdagidagi dardlarimni aytib, ko'nglimni bo'shatay edim, agar shunday qilmasamda men ham avvalgi ayollarimgiz kabi uzoqqa bormasdim...

U eriga yuzlab xamir ko'g'irchoqlarni ko'rsatibdi. Bu qo'g'irchoqlarning birortasi butun emas, ko'pi ikki-uch bo'lakka bo'linib yotgan ekan. Ayolning ayirilib dardlari jonsiz xamir ko'g'irchoqlarni shu ko'ygga solgan ekan.

"Hayot qoniqishdan iborat" degan Zigmund Freydning "Izhor etilmagan hissiyotlar hech qachon o'lmaydi, ular tiriklay ko'milgan holda keyinroq o'zini xunuk munosabatlarda namoyon etadi", "Hech bir odam sir saqlay olmaydi, agar lablari qimirlamas, barmoq uchlari gapiradi; uchragan joyidan xiyonat oqib chiqaveradi" singari ruhiyat bilan bog'liq so'zlari inson hayotida nechog'li ulkan ahmiyatga molik ekanini takrorlashga hojat yo'q. Biz orzu qilgan jamiyatlar aholisi bunday mutafakkirlar asarlarini e'zoz etgan holda mutolaa qilib, erkin hayot, inson va jamiyat munosabatlari haqida bemalol mulohaza yurita olishadi va har biri shu tariqa o'zligini saqlagan holda cheksiz olamda o'zi bir olam bo'lib yashaydi. Yoshlik chog'larida qonilmagan mayllar keyin-keyin xastalik tusini oladi. Chala qobiliyat, erishilmagan orzular, mayda maqsadlarning jilvakor namoyon bo'li-

shi insonni ayanchli ahvolga solib qo'yishi mumkin. Afsuski, Freyd ta'kidlagan, "o'zingni ko'rsat", "mashhur qo'shiqchi bilan hamsuhbat ekaningni ayt", "falanchi-pistonchi bilan shaxmat surib, qahvaxonaga borganingdan gapir" qabildagi boshqalarga aytmaydigan va hatto o'zi ham fahmiga bormaydigan istaklar har bir individni ichdan turtkilab turadi. Uning qulog'i ostiga "sen ham chakana emas", deya shipshib, qutqu soladi. Bu aslo rahmoniy emas. Rahmoniy bo'lmagan hodisalarga esa shaytoniy tuyg'ular aralashadi. Qutqu tinchitmaydi, u o'zini ko'rsatadigan maydon izlashga majburlanadi. Ochiq maydonlar o'tmishda qolib ketgan. Bunday kimsa kitob, musiqqa, san'at, madaniyat, teatr kabi har bir xalqning ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim ahmiyatga molik hodisalarga qiziqmaydi. Yoki ma'naviy darajasidan kelib chiqib, ularga bepisand qaraydi. Shu choqda uning qo'lida telefon yoki qarshisidagi kompyuter monitori ham harakatga kiradi. Qonilmagan mayllar ehtiyojini qondirish koinot hududida davom etar ekan, uning qudug'i endi qamish o'stirish nari tursin, mayda-chuyda g'iybatlar, tarfakashliklar, javobsiz istaklar, foydasiz tilaklar, e'tiborsiz tanqidlar kabi barchasini yutib, sohibining peshonasidan ter chiqaradi. Keyingi paytlarda "dardini aytib olsin" imkoniyati "bug'ini chiqarib olsin" iborasiga aylanib ulgurani ham shundan. Asta-sekin koinot qudug'i insonning o'zligini ham so'rib-yutib yuboradi. Uning zaxkash devorlarida issig'ida izhorini topgan kuchli, emosional tuyg'ular, kun kelib o'z egasining aqldan ozishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan dardu g'amlar

yopishib yotadi. Dariddoshlik seanslari koinot qudug'i tublarida suv o'rnida jilvalanadi, qamish o'rnida ohang taratadi. Bor-budini to'kib solganlar esa, endi yangisini izlay boshlashadi. Uzoqqa borib o'tirishning hojati yo'q. Endi muhabbat, oila, do'stlik, mehr, oqibat kabi pinhoni tuyg'ular yuziga parda tortishga ham hojat qolmaydi. Bahosi bir chaqaga aylangan narsalarning asl qimmatini o'sha pardada ekani esa ko'pchilikning xayoliga ham kelmay qoladi. Yana Freyd ta'biri bilan aytganda, "Ahmoqlikning ilk belgisi uyatni bilmaslik" bo'lib qoladi. Nima yegani, nima ichgani, qachon uyg'ongani, qachon uxlagani, xotini nimaga qiziqadi, otasi qachon o'lgan, ammasining quvonchi, xolasining safari, badanining ozgani, tanining semirgani, hammomga borgan, hammomdan chiqqani, oyog'ining og'rigani, suvining muzlagani kabilarni bajonidil qabul qilib o'tiradigan koinot hududidagi do'sti qarddon bir devor ortidagi qo'ni-qo'shndan, tanbeh beradigan aqlli do'stdan, o'zligini izlashga undaydigan kitobdan, mumtoz asarlardan ko'ra qarddonroq emasmi? Axir, unga buvagining tuvagigacha ayta olish imkoniyatini yaratilgan bo'lsa? Inson, uning fikr-o'ylari, his-tuyg'ularini suiste'mol qilgan holda tabiiy boyliklar, bugun va kelajak uchun asqotadigan muhim narsalarning mosuvo qilish maqsadi asrlar silsilasidagi kurash davomida hech qachon to'xtamagan. O'z qudug'ida qonmagan maylini qondirib, o'z dardu hasratini to'kib solayotganlarning umumijtimoiy hodisalar bilan ishi yo'q, chunki fahmiga yetgani va o'zini qiziqtirgani hadsiz darajada chegaralangan.

Bir mahal boshimni ko'tarib qarasan, barcha yaqinlarim mendan uzoqlashib ketganini ko'rib hayron qoldim, – deydi koinot qudug'i tepasida o'rin olganlardan biri bosh chayqab. – O'rnimdan turay desam, undan uzoqlashmayman, men unga aytish uchun sarguzasht izlaydigan telba sayyohga o'xshab qolibman.

Bir tomonga og'ishga moyil omma o'z fikriga ega emas. Bugun qoraga qarshi turganlar, ertaga oqni yerga urishadi; vaqt o'tib, oqni ham, qorani ham olqishlay boshlashadi. Chetdan koinot qudug'i orqali ongni boshqarib turadigan qandaydir ko'rinmas kuch cheksiz rohatlansa kerak.

Jamiyat hodisalarini tahlil qiladigan fanlar-chi? Masalan? Masalan, sosiologiya. Afsuski, bizda uning nomi bor-u o'zi yo'q. Muammo esa kengayib, koinotning tubsiz qudug'i o'z qo'liga tortib boraveradi. U Bermud uchburchagidan ham xavfliroqdir. Ezgu maqsad sari olib borishi mumkin bo'lgan kemangizni undan ehtiyot qil-

Shoyim BO'TAYEV

HAYOTIY HIKOYA



## GULLAGAN KAKTUS

Bir ayolning xonadonida ko'p yillik kaktus ilk bor gulladi. "Ajabo, – deb o'yladi ayol ko'kish gulchalarga tikilib, – jahldor ayolning kaktusi gullamaydi, deyishardi..."

Kaktusi haqida o'ylagancha tiqilinch metroda ketar ekan, u bir erkakning oyog'ini behos bosib oldi va tanbehga javoban doimgidek: "Shunchalar ta'bi nozik ekansiz, marhamat qilib taksida yuring!", – deb o'shqirmadi. Aksincha, muloyimlik bilan, "kechirasiz, atay qilmadim, xohlasangiz, siz ham oyog'imni bosing, bir-u bir bo'ladi", dedi.

Jiddiy qiyofali erkak indamay qo'ya qoldi. Birozdan so'ng o'z bekatida tushdi-da, gazeta xarid qildi. Qaytimni hisoblashda adashib ketgan sotuvchini koyimoqchi bo'ldi-u, o'zini qo'lga olib:

– Hechqisi yo'q, o'zim ham hisob-kitob ishlarida puxta emasman, xijolat chekmang, – dedi.

Xijolatpazlikdan omon chiqqan sotuvchi qiz esa har kuni nochorlikdan bittagina arzon gazeta sotib oladigan qariyaga yaxshilik qilgisi keldi – unga ikkita jurnal va bir to'p eskiroq gazetalarni bepul berib yubordi.

Qariya nihoyatda xursand bo'lib ketganidan uyi oldida uchrab qolgan tepa qavatdagi qo'shnisiga har galgiday: "Bolangiz filday gursillab yurib tinchimni buzyapti", deb koyinmadi.



Jilmaygancha:

– Qizchangiz katta bo'lib qolibdi-ku, sizga o'xshaydimi, dadasigami – bildim-u, lekin ulg'aysa, judayam go'zal bo'lishi aniq, – deya lutf qildi.

Qo'shni ayol ishxonasiga keldi-da, qabuliga bir kun kechikib kelgan kampirni urishmadi. Buning o'rniga:

– Mayli, xijolat bo'lmang. Men ham ba'zida rejalashtirgan ishlarimni unutib qo'yaman. Bir daqiqa kutib turing, albatta, qabul qilaman, – dedi.

Kampir shifokorga odatdagiday, menga arzon va tez ta'sir qiladigan dori yozmasangiz ustingizdan arz qilaman, deb janjal ko'tarmadi.

– Keksalikning davosi yo'qligini bilaman, shunday bo'lsa-da, yordamingizga muhtojman, – dedi mayin ohangda.

Kampir uyiga qaytar ekan, birdan boshqa ko'chaga burildi. U yo'l bo'yi o'ziga-o'zi gapirib ketdi: "Tavba, ulug' ayyom kunlarida o'zining bolamdan ham xafa bo'lamanni? Tili zahar bo'lsa ham o'zim tuqqanman, ming qilsa ham jigarbandim-ku, axiri!" Manzilga kelgach, uchinchi qavatga ko'tarilib, eshik qo'ng'irog'ini bosdi:

– Tinchmisan, qizim?

– Voy, onajonim! Kechiring meni, – dedi yuzida tabassum bilan eshikni ochgan qizi, – menda ajoyib xushxabar bor. Tongda qarasan, kaktusim gullabdi. Qarang, qanday chiroyli...

Azamat BAXTIYOR

MULOHAZA



## VAQT MUSRIFLARI

Bolalalimizdan "Nonni isrof qilma!", degan pandni deyarli har kuni eshitganimiz va u qon-qonimizga singib ketgan. Yerga tushib yotgan urvoqni ko'rsak, bir chetga olib qo'yamizdan o'tib ketolmaymiz. Lekin nandan boshqa narsalarning uvoliga ko'pda e'tibor qilmaymiz. Ayniqsa, Vaqtning. Afsuski, dunyoda eng ko'p isrof bo'layotgan narsa bu Vaqtdir.

Vaqt nomoddiy, uni qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Shu bois Vaqtning qanday isrof qilayotganimizni his etmaymiz. Ammo u shamshir kabi bizning imkonlarimizni qiymalab boraveradi.

Modomiki gap nonni isrof qilmaslik haqida ketar ekan, uning mohiyati rizqqa borib bog'lanadi. Agar non deb emas, rizqni isrof qilma deyilganida, ehtimol, uvoldan shunchalik qo'rqmagan bo'larmidik... Har holda non kundalik zaruratti, uni iste'mol qilmay yashay olmaymiz. Lekin, taassuflar bo'lsinki, vaqtimizning uvolidan qo'rqmaymiz.

Ba'zan ko'cha-ko'ya behuda sandiroqlab yurgan yoshlarni yoki mahalladagi taxta o'tirg'ich(skameyka)da vaqtini o'tirib o'tkazadigan ayollarni ko'rsam, nahotki ular o'zlariga berilgan umrning qadriga yetmasalar, degan xayolga boraman. Bir inson erishishi mumkin bo'lgan imkonlarning zoye ketganiga achinmaydimi ular? Orzulari-chi? Orzularining necha foizi amalga osharkan bu o'tirishda?

Isrof qiluvchilar dinda musriflar, deyiladi. Musrif arabcha "isrof" so'zidan olingan bo'lib, Alloh bergan ne'matlarni ishlatishda haddan oshganlar, degan ma'noni bildiradi. Demak, vaqtini isrof qilguvchilar vaqt musriflaridir.

Vaqt – Qodir zot dunyoga taqdim qilgan eng arzon, shu bilan birga, eng bebaho boylik. Biz esa, ana shu boylikdan ulush olgan mulkdorlarmiz. Agarki, o'z mulkimizni o'zimiz talon-toroj qilmasak, hayotning bizga atalgan jami saodatiga sohib bo'lmog'imiz bor. Ammo har kimning baxti ham, baxtsizligi ham o'z bo'yinidir.

Muhayyo RUSTAM qizi





## ADABIYOT VA SAN'AT



Yoronlar, bir gap aytay, bir ibratli xotirani sizga yetkazay. Bundan o'ttiz yilcha burun Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasini o'qib, unda o'z otamning taqdirini ko'rdim. Otam sobiq tuzum davrida "quloqning bolasi" bo'lgan. Bobomiz Qosimboyning mol-mulki musodara qilinib, "quloq" qilinganini kattalar yurak hovuchlab, pichirlab hikoya qilishlari haliyam ko'z o'ngimda. Qissa qahramoni Ziyodulla kalning taqdiri otamning qismatiga juda-juda o'xshab ketardi. Otam ham xuddi Ziyodulla kabi otni juda yaxshi ko'rar, balki shu sababdan otiga Ortiq deb laqab qo'ygan bo'lsa kerak. U kishi otini nihoyatda avaylar, do'stidek qadrlardi.

Yana bir gap bor. "Oydinda yurgan odamlar"ni o'qib, qishlog'imizdagi bir befarzand ayol xayolimdan ketmay qolgandi. Ayol qayerda yosh bolalarni ko'rsa, ularni bag'riga bosib, cho'ntagidan mayizmi, turshakmi chiqarib berar va ular ko'zdan g'oyib bo'lgunicha ortidan terilib qolar edi.


Uzun gapning qisqasi shuki, Farg'ona teatrida "Temir xotin" spektaklidan keyin qanday asarni sahnalashtirish ustida izlanayotgan edim. Bo'ldi, topildi! Keyingi spektaklim Tog'ay Murod qissalari asosida bo'ladi! Ancha tayyorgarlik ko'rdim, bo'lg'usi spektaklning sahna ko'rinishlari tasavvurimda birin-ketin jonlanaverdi. Hamma jihatlari topildi: aktyor bor, rassom bor, faqat... ot yo'q. Ot topilganda ham uni sahnaga olib chiqishning imkoni yo'q. Uzoq o'yladim, nihoyat, yo'li topildi. Endi qissani insensirovka qilish, ya'ni sahnaga moslashtirish kerak. Biroq mana ish boshlayman deb turganimda Toshkentga, yosh tomoshabinlar teatri badiiy rahbar qilib tayinlashdi. Endi nima qilaman? Bu yer bolalar teatri bo'lsa, bolabop spektakldan boshqasini qabul qilishmasa... Chinimni aytay, qancha urinmay, oylar o'tsa-da, "Ot kishnagan oqshom"ni yuragimdan uzib tashlolmadim. Nima bo'lsa bo'ldi – bolalar teatri bo'lsa ham sahnalashtiraman! Shu asnoda bir davrada "xushxabar" eshi-

Demak, shaxsan Tog'ay Murodning o'zini topib gaplashish kerak. Ishimni xudo o'nglab, uni topish uncha qiyin bo'lmadi, qadrdonim Sharof Boshbekovga qo'shni chiqib qoldi. U kishi o'rtaga tushib, "Darxon" choyxonasida kaminani yozuvchiga ro'para qildi. Maqsadimni unga salpal shiphitgan ekanmi, salom-alikdan keyin menga uzoq tikilib turdi-da: "Sen "Ot kishnagan oqshom"ni nima qilmoqchisan?" deb so'radi. Men: "Sahnalashtiraman", dedim. U: "Bo'maydi", dedi. Men: "Bo'ladi", dedim. U yana: "Bo'maydi", dedi. Men yana: "Bo'ladi", deb tixirlik qilib turaverdim. Tog'ay Murod: "Nimaga bo'ladi?" dedi. Men: "Yaxshi asar ekan uchun bo'ladi. Men sahnalashtiraman deb qattiq urinayotganim uchun bo'ladi. Teatrdan aktyorlar jamlashib, yaxshi umid bilan ijod qilamiz, deb shay turgani uchun bo'ladi", desam, Tog'ay Murod: "Bu balandparvoz gaplarni yig'ishtir, sen menga bo'larini ayt", dedi.

Bo'larini unga qanday tushuntiray ekan? Shu turishda choyxonada Tog'ay Murodga rejissyorlik mahoratidan imtihon topshirishim kerakka o'xshab qoldi. Unga: "Kasbim amaliy, gapirib berish bilan bo'lmaydi, men faqat sahnada ko'rsatib bera olaman, xolos. Siz menga ishonishingiz kerak", dedim. Tog'ay Murod choydan bir-ikki ho'pladi-da, o'ylanib turib: "Sahna-

lari qo'shiladi. Shunga yana ot minadigan chavandozlarni qo'shsangiz, sahnada bir necha otning yoki bir otning ifodasi paydo bo'ladi".

Tog'ay Murod bu "tryukka" uncha tushunmadi yoki ishonmadi. Birpas sukutdan so'ng yana bosh chayqab, "Bo'maydi", dedi. Men tag'in: "Bo'ladi", dedim. U:



"Arqon ot bo'lmaydi", dedi. Men takror: "Bo'ladi! – dedim. – Ziyodulla rolini ijro etadigan aktyorim bor, Farhod Aminov, u shu arqonga qo'lini asta tekkazib: "Tek, tek, Tarlon, tek", degani hamono, arqondagi egar otga aylanadi. U shu jonsiz egarga jon ato qila oladigan aktyor, sehrgar, ishonig", dedim. Qattiq turib olganimmi yoki Farhod Aminovning nomimi, baharnav, Tog'ay Murodni eritdi. U rozilik berdi: "Mayli, menga ishlar qanday ketayotganini aytib turasiz", dedi bu safar sizlab. Men: "Teatrga borib ishlarimiz qanday ketayotganini o'zingiz bir ko'rsangiz-chi", desam, "Yo'q, bormayman", deb bosh chayqadi. Buni shunday qat'iy aytdiki, boshqa gap sig'masdi. Xullas, Tog'ay Murod ko'ndirguncha ancha vaqt o'tdi. Yoronlar, uning tanishlari "qaysar, o'jar", deyishganda ancha yumshatib aytishgan ekan. Toshkentga mart oylarida ishga kelgan bo'lsam, spektakl ustida ijodiy ishlar bir oydan keyin boshlandi.

Shu-shu, Tog'ay Murod bilan kun orab "Darxon" choyxonasida uchrashib turadigan bo'ldik. Bu takyaxonada necha choynak choy-poylar ichib yuborilganini choyxonachi Shukurullo bangi ham bilmasa kerak. Birodarlar, bu yozuvchi degani nafaqat o'jar, o'taketgan sinchi ham chiqib qoldi: har bir detalga tirlaladi, har bir personaj, uning xarakteri, gapirish uslubini aytib, ba'zan ko'rsatib ham beradi: "Ziyodulla anavi Bovva bilan qanday gaplashadi? Bovva axir Ziyodullaning xayolida-ku?" – deb xira qiladi. Men tushuntiraman: "Spektaklda Bovvani aktyor ijro qiladi, u oppoq kiyimda, oppoq soqollari bilan, projektorning yorqin nurlari ostida sahnaning to'rida paydo bo'ladi. Lekin Ziyodulla bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilmaydi, Bovva gapirmaydi, faqat Ziyodulla unga murojaat qiladi". Yana u: "Ziyodullaning onasi – Momo, yarim kecha uylariga kattalar bostirib kelganida, ularni haydab qarg'aydi. Momo mana shunaqa deb qar-

# VALLOMAT ADIBNING IMTIHONI

## MA'RIFATLI KISHILAR



## KITOB HAYOTNI BEZAYDI

Xalqimiz azaldan savob ishlar qilishni o'tkinchi umrning mazmuni, deb bilgan. Darhaqiqat, maktablar qurish, yo'llarni sozlash, muhtojlarga yordam qo'lini cho'zishdek xayrli yumushlar inson hayotini bezaydi. Ayniqsa, muqaddas ro'zai ramazon oyida ezgulik yo'lida nafsni jilovlash ruhiyatimizga yengillik, qalbimizga quvonch bag'ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks choratadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori kitobxonlikka yuksak e'tibordan tashqari, bebaho boylik sifatida kitobni qadrlash, asrab-avaylashda ham muhim ahamiyat kasb etdi. O'tmishda o'lkamizda xususiy kutubxonalar bilan xalqqa beminnat xizmat ko'rsatib, ziyo taratgan savobtalab insonlar ko'p bo'lgan. Joylarda tadbirkorlar, saxovatli kishilar tomonidan xususiy kutubxonalar yo'lga qo'yilgani aholi qo'lidagi kitoblarni asrab qolishning muhim omiliga aylangan. O'tgan asr boshida jaded bobolarimiz millat yoshlari kelajagi uchun qayg'urib, ilg'or yangiliklarni joriy etishga intilishgani, maktablar, kutubxonalar ochishgani biz uchun ibrat namunasi.

Bugun yurtimizda o'nlab xususiy kutubxonalar faoliyat yuritmoqda. Ularga Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonadan tashqari ko'mak berilayotir: kitoblar tuhfa etilmoqda, ular Milliy kutubxonaning elektron kutubxonasiga ulanmoqda, shuningdek, kutubxonachilik me'yorlari bo'yicha kitoblarni qayta ishlash, joylash bo'yicha amaliy yordam olmoqda. Yil boshida tashkil etilib, qisqa fursatlarda xalqimiz e'tiborini qozongan sevimli "Jadid" gazetasi sahifalarida xususiy kutubxonalar va ularning faoliyati, bu ishga kamarbasta zamonaviy jaddilar, fidoyi insonlar haqida maqolalar berib borilayotir. Bu esa ezgu ishlar respublikamiz bo'yab keng quloch yo'yishiga samarali ta'sir o'tkazib kelayotir.

Shu kunlarda Farg'ona vodiysiga xizmat safarimiz chog'ida Andijon viloyatining Qo'rg'ontepa tumanidagi Sultonobod qishlog'ida yana bir xususiy kutubxonahohi bilan tanishdik. Bizni 86 yoshni qoralagan Nabijon bobo Uraimov xonadoniga chorlagan narsa ham uning xususiy kutubxonasi bo'ldi. Shaxsiy kutubxonasi bor insonlar ko'p, ammo ulardan xalqning beminnat foydalanishi boshqa masala. 1983-yildan beri Nabijon bobo kutubxonasidan foydalangan kitobxonlar ism-familiyasi qayd qilingan daftarni ko'rib hayratga tushdim. Kutubxonada 10 mingdan ziyod nashr bo'lib, shulardan 74 tasi nodir nashrlar. Nodir manbalar, asosan, diniy adabiyotlar bo'lib, Nabijon boboning otasi ilmi inson bo'lgani sababli kitoblar yaxshi saqlangan. Kutubxonadan bugun ham qishloq ahli foydalanayotir. Shinamgina kutubxonada kitoblar uchun qo'shimcha javonlar qo'yilsa, bu ma'naviy boylik o'z ko'rkini to'la namoyon qiladi. Nabijon boboning nodir kitoblarni ta'mirlash, ularni o'rganish va yagona reyestrga kiritish bo'yicha zarur ishlarni amalga oshirish kerak. Bu masalada Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi o'z yordamini ayamaydi.




tib qoldim: Tog'ay Murod o'z qissalarini sahnalashtirishga ruxsat bermas ekan... "U juda qaysar, o'jar odam, uncha-muncha odamga yozgan asarlari taqdirini ishonib berib qo'ymaydi. Siz kim bo'psiz? Ha, endi "Temir xotin"ni qo'ygan bo'lsangiz, qo'ygandirsiz. Bu dunyoda xotin qo'ygan kammi? Lekin Tog'ay Murodga tishingiz o'tmaydi". Obbo! Agar shu gaplar rost bo'lsa, ishlar chatoq!

da ot bo'ladimi?" deb so'radi. Men: "Bo'ladi", dedim. U hayron qolib: "Tirik otmidi?" dedi. "Yo'q", dedim. U yana hayron qoldi. Og'aynilar, hozir o'zimni qo'lga olib, rejissyorlik mahoratimni ko'rsatmasam, ish bitmaydiganga o'xshab qoldi. Tavakkal, gap boshladim: "Sahnada tepadan osilib tushgan arqonlar uchiga egarlar bog'lanadi. Bu egarlar sahna bo'yab aylanib yuradi. Bunga otlarning dupuri, kishnagan ovoz-

*Ma'lumki sanoji nafisa – teatr-u bizim Toshkand musulmon yoshlari orasinda juda ham yengil bir ish onglashilganlikdan favqulodda bir buzug'likda davom etmakda bo'lib, ulug'lar maktabi bo'lgan teatr sahnalari allaqanday safsata va noahil kishilar qo'linda bir o'yinchig bo'lib kelmoqdadir.*

Abdulla QODIRIY



**Olimjon SALIMOV,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
san'at arbobi,  
rejissyor

**Umida TESHABOYEVA,**  
Alisher Navoiy nomidagi  
O'zbekiston Milliy kutubxonasi  
direktori





## TARIX VA TAQDIR

## MASH'UM DAVR MAZLUMALARI

**Har bir millat va elatning o'z tarixi bor. Tarix zamirida esa, milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarga hurmat, ajdodlar xotirasiga ehtirom tuyg'usi mujassam. Sir emaski, mustabid tuzum davrida xalqimizning ana shu muqaddas tuyg'usi toptaldi, tariximizni xolis o'rganishga yo'l berilmadi, milliy va diniy qadriyatlarimiz oyoq-osti qilindi.**

Oktabr to'ntarishi oqibati-da Turkistonda zo'rlik bilan o'rnatilgan sovetlar tuzumi o'z hukmronligining dastlabki kunlaridan boshlab shu zaminda yashayotgan xalqlar boshiga qirg'inlar, alamlil kulfatlar yog'dirdi. Shu bois Turkiston zaminining ilg'or vakillari istiqloq, erk va ozodlik yo'lida kurash olib bordi. Turli manbalarda ta'kidlanishicha, bu davrlarda 1 million 900 ming nafar turkistonlik xorijiy mamlakatlarga bosh olib ketishga majbur bo'lgan, 1 million 700 ming kishi Sibir, Uzoq Sharq, Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Ural, Qozog'iston va Volgabo'yi hududlariga badarg'a qilingan.

Buning ustiga, mustabid tuzum davrida bir necha bor amalga oshirilgan mash'um qatag'onlar tufayli yana qanchadan-qancha begunoh vatandoshlarimiz azob-uqubatlarga duchor bo'lishdi. Eng achinarlisi, ana shu jabrdiyda kishilar orasida ayollar ham bor edi. 1937-1938-yillarda qatag'on bo'roni avj olib, minglab vatandoshlarimiz manglayiga "xalq dushmani" tamg'asi urilgach, juda ko'plab xotin-qizlarimiz ham aql bovar qilmas zulm va zo'ravonlik qurboniga aylandi.

Arxiv hujjatlarida shu choqqacha dur va marvarid shodalari bezab kelgan nozik bo'yniga qatag'on qilichining o'tkir tig'i qadalgan yuzlab ayollarning ayanchli qismati haqida guvohlik beruvchi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ularning ba'zilari Tojixon Shodiyeva singari taniqli partiya va davlat arbobi bo'lgani uchun, boshqalari esa Maryam Sultonmurodova kabi Germaniyada

tahsil olganlari bois "aksilinqilobchi" va "millatchi", ba'zan esa "chet el razvedkasining josusi" degan kurakda turmas bahonalari bilan qamoqqa olingan. Bechora mazlumalar yo o'sha kezlardayoq otib tashlangan, yoxud olis va sovuq o'lkalardagi

lagerlarga badarg'a qilingan. Yana o'nlab, va ehtimol, yuzlab ayollar "xalq dushmani"ga chiqarilgan, farzandi, eri yoki otasining "aksilinqilobiy, millatchilik faoliyati" haqida siyosiy idoralarga o'z vaqtida xabar bermagani uchun hibsga olinib, mislsiz azob-uqubatlarga duchor qilingan.

Shafqatsiz tergovchilar bunday sodda va mushfiq ayollarning aybsiz ekanini bilsa-da, ulardan jigar-go'shalarining dushmanlik faoliyatini tasdiqlovchi dalillarni talab qilishgan. To'g'ri, bu ayollarning aksariyati 1939-yilda ozodlikka chiqarilgan. Shu bois ular rasman qatag'on qurbonlari

hisoblanmaydi. Biroq ikki-uch yillab NKVDning qorong'i va zax yerto'lalari yoxud turmaning qo'lansa hidli kameralarida azob-uqubatlarda yashagan, qiynoqxonalarda eri va yaqinlarining dahshatli faryodlarini eshitib, yurak-bag'ri tilka-tilka bo'lgan, hatto ozod etilganidan keyin ham o'zlariga nisbatan shubha-gumonlar, tahqir va haqoratlar hukmron muhitda yashagan bu ayollar aslida o'sha davrimiz haqiqiy mazlumalari hisoblanadi.

Keling, shu o'rinda ana shunday jabrdiyda ayollardan ayrimlarining nomini tilga olib o'taylik.

**Tojixon Shodiyeva** – "Yangi yo'l" jurnalining muharriri, sobiq Molotov (hozirgi Farg'ona) tumani partiya tashkiloti kotibi;

**Valentina Vasilyeva** – O'rta Osiyo davlat universiteti o'qituvchisi, qatag'on qilingan shoir Botuning turmush o'rtog'i;

**Ketevan Isloмова** – Yengil sanoat xalq komissarligi iqtisodchisi, qatag'on uchragan Akbar Islo-movning turmush o'rtog'i;

**Kimyo Ashurova** – uy bekasi, qatag'on qilingan Tojikiston K(b)P MKning birinchi kotibi, asli farg'onalik O'rinqob Ashurovning turmush o'rtog'i;

**Zaynab Hoshimova** – uy bekasi, qatag'on qilingan Otajon Hoshimning turmush o'rtog'i;

**Rahbar Shermuhamedova** – uy bekasi, qatag'on qilingan Mirmuslim Shermuhamedovning turmush o'rtog'i;

**Antonina Karimova** – uy bekasi, qatag'on qilingan O'zbekiston Xalq komissarligi soveti raisi Abdulla Karimovning turmush o'rtog'i;

**Zinaida Rasuleva** – uy bekasi, qatag'on qilingan "Uztagotkloptrest" tashkiloti iqtisodchisi Ali Rasulevning turmush o'rtog'i;

**Basya Matqul** – Germaniyada tahsil olgan kimyo sanoati xodimasi, qatag'on qilingan Sulton Matqulning turmush o'rtog'i;

**Elmira Isloмова** – uy bekasi, yer ishlari xalq komissari Rustam Islomovning turmush o'rtog'i;

**Zuhra Tursunxo'jayeva** – uy bekasi, O'zbekiston tashqi savdo komissari Muhiddin Tursunxo'jayevning turmush o'rtog'i;

**Rahima Isloмова** – Samarqand viloyati Miton tumani yoshlar tashkiloti rahbari;

**Hikmat Fitratova** – uy bekasi, qatag'on qilingan atoqli ma'rifatparvar adib va olim Abdurauf Fitratning turmush o'rtog'i;

**Ashob Mirsharopova** – uy bekasi, qatag'on qilingan o'zbek diviziyasi komandiri Mirkomil Mirsharopovning turmush o'rtog'i.

Ochig'i, bu ro'yaxni davom ettirishga kishining yuragi dosh bermaydi. Oilasiga, eriga sadoqati, farzandlariga cheksiz mehr-muhabbati uchun boshiga ayovsiz kulfatlar yog'ilgan bu jabrdiydalarning achchiq qismati bugun har birimizga saboq bo'lishi kerak.

Shular haqida o'ylaganda jonajon Vatanimizning istiqlol qanchalik aziz va qadri ekani, hozirgi fayzli kunlarda O'zbekistonda muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan ayollarning qadri va hurmatini joyiga qo'yish maqsadida amalga oshirilayotgan ezgu va xayrii ishlarning ahamiyati yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, keyingi yillarda xalqimiz ozodligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida mardona kurash olib borib, aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida nohaq qatag'on qilingan insonlarning sharafi nomlarini qayta tiklash, ularning faoliyati va merosini o'rganish hamda targ'ib etishga katta e'tibor qaratilayotgani kishini benihoya xursand qiladi. Mana shunday sharoitda yuqorida tilga olingan mazluma ayollarning xotirasini e'zozlab, ruhlarini shod etish sizu bizning zimmamizdagi burchimizdir.

**Muqaddam USMONOVA, Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi**

## XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

**Erg'oziyev Ubaydulla Qori** – 1892-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Ruhoniy oilasidan, sobiq savdogar. 1932-yil 7-avgustda 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. "Milliy ittihad" tashkilotining sobiq a'zosi. Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qo'zg'olon tayyorlashda boshchilarga yordam berganlikda, Qibraydagi uyida boshmachilarni saqlanganlikda ayblangan.

**Mirfozilov Mirsulton** – 1907-yili tug'ilgan. Andijonning yirik sanoatchisi Mirkomil Mirmo'minboevning o'g'li. 1934-yili bosqinchi uchun 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan, jazo muddatini o'tamay qochib kelgan. Hech qayerda ishlamagani va jinoyatchi unsur bilan aloqa o'rnatib bezorilik, o'g'rilik bilan shug'ullangani uchun ayblangan. "Uchlik"ning 1937-yil 13-sentyabrda bayonnomasi qarori bilan 6649-sonli ish bo'yicha otuvga hukm qilingan.

## QATAG'ON QURBONLARI

**Burhonov Muxammad** – 1897-yili tug'ilgan, Buxoro shahridan, ruhoni, mudarrisning o'g'li. Buxoro xalq sovet respublikasi huzuridagi Bosh militsiya boshlig'i. Hibsga olingunga qadar Samarqandagi 5-son maktabda pedagoglik qilgan, aksilinqilobiy "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi. Turkiyada bo'lganida millatchi, aksilinqilobchi arboblar bilan aloqa o'rnatib, ularga moddiy yordam ko'rsatganlikda, O'zbekistonda SSSRdan ajratib olish uchun aksilinqilobiy tashviqot yuritganlikda ayblangan.

**Mukomilov Abdurashid** – 1901-yili Turkmaniston SSR Kerki rayoni Bakr qishlog'ida tug'ilgan. VKP(b)ning sobiq a'zosi, millatchi sifatida partiyadan chiqarilgan. Hibsga olingunga qadar Boshgo'sht trestining boshqaruvchisi bo'lib xizmat qilgan. "Milliy ittihad" tashkilotining Buxoro filiali rahbari. Tashkilot kengashlarida faol qatnashgan, boshmachilar to'dasini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Xorijdagi aksilinqilobiy muhojirlar bilan aloqada bo'lganlikda, "Mustaqil O'zbekiston"ni tashkil etish uchun doimiy ravishda tashviqot yurgizganlikda ayblangan.

**Burxonov Masxar** – 1876-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Buxoro xalq sovet respublikasi davrida maorif vazirining o'rinbosari. Millatchi, aksilinqilobiy "Ittihad va taraqqiy" tashkiloti a'zosi bo'lgan, chet eldan qaytib kelgach, "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotga kirgan. Bu tashkilotning sovet hokimiyati bilan kurash olib borish, qurolli qo'zg'olon tashkil etish, boshmachilar to'dasini tuzish va O'zbekistonda SSSRdan ajratib olish masalalari muhokama qilingan yig'ilishlarda muntazam qatnashganlikda ayblangan.

**Muzaffarov Rahmatulla** – 1898-yili Buxoro shahrida tug'ilgan, xizmatchi oilasidan. VKP(b)ning sobiq a'zosi, millatchiligi uchun partiyadan chiqarilgan. "Milliy ittihad" tashkilotiga a'zo bo'lib, tashkilotning O'zbekistonda SSSRdan ajratib olish va burjua davlatini tuzish masalalari muhokama qilingan markaz yig'inlarida muntazam qatnashganlikda, fosh etilgan millatchilarga yordam ko'rsatish kassasini tashkil etish tashabbuskorlaridan bo'lganlikda ayblangan.

**Abusaidov Ahmadjon Maxsum** – 1877-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Buxoro xalq sovet respublikasi davrida Markaziy ijroiya komiteti raisi bo'lgan. Aksilinqilobiy "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi sifatida uning kengashlarida doimiy ravishda qatnashgan. Sovet hokimiyatiga qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqishda ishtirok etganlikda, Afg'oniston va Germaniya konsulliklari bilan aloqa o'rnatganlikda ayblangan.

**Xo'jayev Porso** – 1877-yili Buxoro shahrida tug'ilgan, sobiq savdogar, VKP(b)ning sobiq a'zosi, millatchiligi uchun partiyadan chiqarilgan, hibsga olingunga qadar nafaqaxor. Aksilinqilobiy "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi sifatida uning yig'ilishlarida faol qatnashgan. Aksilinqilobiy tashkilot rahbarlari bilan aloqada bo'lib, targ'ibot olib borganlikda ayblangan.

**Burhonov Misbax Mazayilovich** – 1905-yili tug'ilgan, xizmatchining o'g'li, VKP(b)ning sobiq a'zosi, millatchi sifatida tashkilotdan chiqarilgan, sudlangan. Aksilinqilobiy "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi. Xorijdagi, Tojikiston va O'zbekistondagi millatchi, aksilinqilobiy arboblar o'rtasida aloqa o'rnatganlikda ayblangan.

**Azimboyev Said Akrom** – 1892-yil Toshkent shahrida tug'ilgan, yirik yer egasi va savdogar o'g'li. VKP(b)ning sobiq a'zosi, millatchi sifatida partiyadan chiqarilgan. "Turon", "Sho'royi Islomiy", "Turk Odami Markaziyati" (Mussovet), "Ittihodi va Taraqqiy" tashkilotlarini hamda eserlar partiyasi va aksilinqilobiy "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi sifatida faol aksilinqilobiy, millatchilik, mag'lubiyatchilik targ'ibotini olib borganlikda ayblangan. O'zSSR IIXK davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-30-ili-mi taqdim etgan 6805-sonli ish bo'yicha otuvga hukm qilingan.

**Olimonov Hoshim** – 1893-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Aksilinqilobiy "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi. Hibsga olingunga qadar kolxoz a'zosi bo'lgan. "Milliy ittihad" a'zosi sifatida tashkilotga yangi a'zolarini jalb qilish bilan shug'ullanganlikda, urush va hukumatdagi o'zgarishlar to'g'risida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan. 4625-ish bo'yicha otuvga hukm qilingan.

**Qayumov Aziz** – 1898-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. Yirik savdogarning o'g'li. 1919-yildan 1935-yilgacha VKP(b)ning a'zosi, ijtimoiy kelib chiqishini yashirgan uchun partiyadan o'chirilgan. "Botir gapchilar" aksilinqilobiy tashkilot a'zosi. Qo'qon shahar bo'limi taqdim qilgan 1629-sonli ish bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 21-avgustdan hisoblangan. Aholi orasida aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, zayomga yozilishga qarshi chiqqanlikda ayblangan.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**  
tarix fanlari doktori,  
professor,  
Nigoraxon AKBAROVA,  
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonida).

## TABDIL

## "XURSHID" MUSHTARILARINA OCHIQ MAKTUB

1906-1908-yillar orasida biri-birining davomi bo'la oladigan "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat" va "Osiyo" nomli to'rt nashr paydo bo'ldi. Ismoil G'asprali "Xurshid"ni "sof milliy" gazeta deb atadi. Gazeta "tili"ni boshqalariga o'rnak sifatida ko'rsatish maqsadida unda bosilgan ayrim maqolalarni o'zining "Tarjimon"ida qayta nashr qildi. "Xurshid" gazetasi yopilguniga qadar "Tarjimon" bilan hamkorlik qildi.

Afsuski, yuqoridagi tilga olingan to'rtala gazeta ham juda qisqa umr ko'rdi. Ular shu qisqa davrda Turkiston jadidlarini milliy va diniy o'z-o'zini anglash yo'lidan borayotgan kuch sifatida namoyon qilib ulgurdi.

"Shuhrat" gazetasining birinchi sonida sobiq "Xurshid" gazetasi muharriri Munavvar qori Abdurashidxonovning maqolasi ham chop qilingan. Maqolada Munavvar qori "Xurshid" gazetasi yopilganidan keyin yuz bergan ayrim voqea-hodisalarning tafsilotlarini ochiq aytdi. Eng muhimi, ana shu kichik tafsilotlar har qanday katta muammolar va bosimlarga qaramasdan, jadid ma'rifatparvarlari o'z maslagidan chekinmaganini ochiq-oydin ko'rsatib beradi.

Muhtaram birodarlarim! Bir yildan beri bu falak kajrafton jabridan qalamim tili lol, o'zim parishonhol o'lub xomushlik go'shasina chekilub yonmakda...

Musro' dardnoklar bani xasta sadolar ila viridi zabon etmakda edim. Mani bu holga solg'on va bu faryodlarga majbur etgan sabablar garchi siz afandilarima o'z vaqtida mujmalan ma'lum o'lsa ham, oradan uzun muddat o'tgani uchun bu "ochiq maktub"ni yozib, bir qadar tafsilot vermamim illat o'lmaq arzusi-la o'tkan yil "Xurshid" g'azitasini nashrina jasorat etmish edim. Mani bu xizmatimg'a mukofot o'laraq siz hurmatlular ham mushtari o'lmaq ila ionat bermish va bermakda edingiz. Bu munosabat ila "Xurshid" o'z maslakli betarafonasida davom etmakda edi. Lekin 11-inchi no'mrusi chiqar

oldindan falak gardishidan osmon xurshidini boshig'a yetadurg'on jabri "kusuf" yer "Xurshid"ini ham boshig'a kelib yetdi. Ya'ni 1906 inchi yil 16-inchi no'yabrda shahar polisamaysteri idoramizg'a Turkistonning muvaqqat genirof gubernato'ri tarafidan amrnoma kelturub, "Xurshid"ning chrezvichayni oxrana (muhofazayi ashidda) quvvati ila to'xtatilg'onlig'ini bayon edub mandan imzo oldi.

Holbuki, "Xurshid" mo'tadil maslakli maishiy bir g'azita o'lub bir kalima o'lusun zakung'a muxolif so'z yozilmag'on edi. Shul sababli "sud so'rab, albatta, aybsiz topar, so'ngra chiqorurman" umidi ila bir oyg'a qadar kutdim. Oxirida 8-inchi no'mruni sudg'a berg'onlari, sud o'z-o'zidan aybsiz topib qaytarg'onlig'i ma'lum o'ldig'indan yanadan chiqarmak ichun ijozat so'rab ariza berg'onimda arizamni 3 oyg'a yaqin soqlab, so'ngra "sizni g'azitangiz chrezvichayni oxrana quvvati ila to'xtatilg'on ekan, shu quvvat ko'tarilmag'uncha sizg'a ijozat berilmas" javobi ila arizamni rad qildilar.

Ishta ko'ringiz "Xurshid" hech bir aybsiz o'lub, bor aybi taraqqiyparvarligi,

musulmonlarni ilm va ittifoqqa chiqirg'on ekan.

Bu jabr yolg'uz manga o'lmay taraqqiyparvar muharrirlarning ko'blarini boshlarig'a kelgan to'y o'ldig'indan bunga hech bir g'amgin o'lmasam ham siz hurmatlulardan "g'azita berurman" deb oqcha olib va'damg'a vafo qilolmaganim, ham suyuqlik millatimg'a qilib turg'on xizmatimdan mahrum o'lg'onim mani qalam xizmatining tark etub, xomushlik ko'chasina chekilub faryod etmaga majbur etmish edi.

Mushtarilarning ko'blarining haqlari bir yarim oy, iki oy, ya'ni 40 tiyin, 50 tiyin qolg'on ichun oqchani qaytarib yubormak mumkin o'lmadig'indan kelib so'rag'on kishilarg'a berib, qolg'onlarini adrislarini saqlamakda va Turkiston tilida bir g'azita



chiqmagini to'rt ko'z ila kutub yonmakda edim. Qachonki "Tujjor" g'azitasini chiqmagini eshitdim nihoyatda xursand o'ldig'indan to'xtovsiz idorasig'a bor-

dim. G'azita nashri ila tabrigim ba'dinda "Xurshid" mushtarilarina "Tujjor" bermak xususida so'z ochilib, oramizda o'lg'on kelishma sababli hama adrislarini "Tujjor" idorasina topshurdim, ham "Tujjor"ning birinchi no'mrusidan boshlab hama mushtarilarg'a yuborildi.

Bu yuborilmish g'azita "Xurshid" badalina ekanligini mushtarilarg'a bildurmak, albatta, lozim edi. Shul sababli muallif afandidan "Xurshid" mushtarilarina "Tujjor" berilmog'ini birinchi no'mrusida e'lon etilmaklarini iltimos etkanimizda muallif afandi "e'lon etsak hukumat bad gumon bo'lur, shul sababli e'lon etmasdan to'g'ri yubormagimiz yaxshiroqdur" demish edilar. Lekin muallif afandi va'dalarig'a vafo qilmay Samarqandg'a borg'onlarida "Xurshid" mushtariylarining ba'zilaridan oqcha so'rog'onlari eshiltildi.

Ishta bu ish avvalgi xursandliklarni zo'yil qilib, ikkinchi bir g'azita yubormak fikrig'a solmish edi. Lekin na chora, hamon sukut etmakda edim. Emdi, alhamdulillah, Toshkand ziyolilari g'ayrat qilib ushbu "Shuhrat" g'azitasini nashrig'a muvaffaq o'ldilar. Man ham siz hurmatlularni haqlaringizni gardimdan soqit qilmak ichun bu "Shuhrat" idorasini ila kelishub "Xurshid" badalina "Shuhrat" yubordim.

Shoyadki, siz afandilarim mandan rozi o'lub, nuqsonimni afu qiltursiz.

So'ng so'zim "Shuhrat" esa chiqdi. Emdi buning davomi siz hurmatlularni ionatingiz ila bo'lur. Shul sababli bu "Shuhrat" g'a moddiy va ma'naviy ionatda o'lub davomini ta'min etmaka cholishmog'ingizni an samim ul-qalb rijo qilib "Yashasun "Shuhrat" g'azitasi, ko'paysun yordamchilari" demak ila xatmi kalom qilurman.

**"Xurshid" muharriri M.A.(Munavvar qori Abdurashidxonov)**

**"Shuhrat" gazetasi, 1-son, 1907 yil**





## BA'ZI "INQILOBCHI" LARGA!

## AYOL SHA'NI

Eng avval Onaga – ayolga ta'zim, Ta'zimdir mushfiq opa-singilga. Bosgan izi asli – yurt xaritasi, Ta'zim bo'lsin yorga, darddosh ko'ngilga.

"Vatanni sevaman" degan izhorni Aytmasdan, jim yurish mumkindir, illo. Lek aziz ayolga bir dasta gulday, "Sevaman!" so'zini aytmaslik gunoh!

Ana shu ayolning ko'ksidagi nur, Bu sovuq olamni sirga o'ragan. O'zidan zerikkan, kulgusi salqi, Bemurod dunyoning labin bo'yagan.

Ayolning qudrati bir uyum toshdan Borliqqa Toj mahal hadyalar etgan. Shu aziz siymoning o't nigohidan Zamin qit'alariga bo'linib ketgan.

O'zi-chun yashashni unutilib goho, Muhabbat tongida oyday balqqanim. O'zbek ayoli ham bordir shu shu O'lmasin bolam, deb tug'day qalqqanim.

Qiyomat kunida, Mahshar tongida Onalar farzandan tonayotgan dam. "Voh, bolam!" deb birov bo'zlasa nogoh, Bu o'zbek onasi, beshak, muhtaram.

O'zi bir shtat ish – o'zbek bo'lmoqlik, O'zbek ayoli bu – ikki bor yashash. Bu nomni ko'tarmoq uchun qancha kuch, Qanchalar ulug'lik, matonat, kurash...

Va buyuk muhabbat kerak bo'ladi, Bu ulug' sharafni pok tutmoq uchun. Mehr tilanmaydi, qozoniladi, Kuch kerak! Sabrni jim yutmoq uchun!

Ey, siz aziz ayol nomidan so'zlab, Eng go'zal bog'imga tegayotganlar. Bir bor kelinchakday egilmay turib, Mening ham boshimni egayotganlar.

Nomus matosini ko'chaga yoyib, Quyosh yuziga kul sochayotganlar. Xudo bilan ayol o'rtasidagi Eng pinhon darchani ochayotganlar.

Ey, ahli gumonlar, biling olamda Haliyam oshiqlar va hijron bordir. Haliyam kimgadirdi visol hurmati Titrab turgan gulning jamoli yordir.

Ha! Nedir sir bo'lib qolishi kerak! Nelarningdir pinhon turgani zebo. Kimdir hayo tutgan parda ortida Nozik entikkanda portlasin dunyo.

Vatan haqidagi nutqdir, shubhasiz, Ayolning nomidan aytar har so'zim. Shu sabab bu qutlug' kalom oldidan, Ta'zim, deymen faqat, poyiga ta'zim!

Shodmonqul SALOM

## ZARDA

## TABIATNING XATOSI

Yo'q, isitman yo'q, do'xtir. Qo'ltig'imga muzdey o'lchagichingni tiqib, qitg'imni qo'zitib o'tirma. Davleniyangiz bormi, deysanmi? Shunaga tuzi past savollarga o'pqqadam rahmatli: "Davleniya jonivor beva kirpidayam bo'ladi. Faqat o'lchashni yo'lini qilsang bas", deb qo'yadi. Shu zamonada qon bosimi oshmaydigan odam borakanmi? To'xta, xapdoringni qo'yip tur. Oldin dardimni eshit. Ertaman yaxshi niyatda qo'y bozorga ketyotuvdim. Ha-da, bugun Ultarmada juma bozor-u. Xullas, ikki ming so'mlik marshrutkaga qo'chqor sakrash qilib suqilib chiqqovdim. Meni bilasan, do'xtir, yoshlikdan dong taratib, nom chiqqazib qo'yganimdan qayga borsam, irg'ib turib joy bo'shatishadi. O'mashib, manzaratli yigitchaga iyak qo'qib, munday qarasam oldingi o'rindiqdagi bir po'rimnusxa tilponida tomosha ko'rib ketyapti. Nima balo ekan, desam, adras xalat kiygan bir oyimtila bepardaroq gaplarni mo'ychinak ko'rmagan qizchalarga valdirab yotipti. Oldiniga, biror serial-perialdan shingil bo'lsa kerak deb o'ylapman. Sarap sop qarasam haligi xotin shiltalanib, paqas er-xotin ham gaplashmaydigan ishlarni "chaynamayshimim" qib yotipti. G'ashim kegan – anovi oyimchalaram chala sumalakdey suyulip dingquloq eshityapti. Po'rimnusxani chap yelkasiga nuqip, "bu nima, bu kim?", degandey iyak irg'itdim... Do'xtir, suvingdan ellik gram quyvor, tomoq qaqrap ketdi. Xullas, ko'rganim serial-kinomas, fayusbukmi-dayusbukmi deganni tamo-shasiyakan. Nimaymish, qiz bola o'zini asrash shartmas, xohlagani bilan ko'ngliga kelgan ishni qilaverishi kerakmish. Bizdagi qizlarni avaylab-asrab,

nomahram ko'zdan pana tutish qoloqlik, johillikmish. Xullas, qo'ypodaga o'xshab yashayverish kerakmish... Miyamga qon tepti. Haligidan so'radim: "Bu tomoshani hamma ko'rib, hamma eshitadimi?"  
– Xohlagan odam eshitovradi, tog'a.  
– Maktab bollarammi?

gaplar aylanadigan bo'p ketti-mi? – degan savolim yonimdagi hamrohimga bo'ldi.  
– Gapiyotgan adras ko'y-nakli xotinmas, erkak, – dedi u pichirlab.  
– Nima?! Erkak?! Qanaqasi-ga?!  
– Shunaqalar bor-da, aka, zamon shunaga bo'pketdi.



– Maktab bollaram, tog'a.  
– Qiz-juvonlarammi?  
– Qiz-juvonlaram, tog'a.  
"Xe, tomoshalarimga...", deb boshladim-u yonimdagilarni menga "yalit" etip qaraganini ko'rip taqqa to'xtadim.  
– Qizlar davrasida shunaga

– Meni ahmoq qilyapsanmi? Hozir bitta qo'yaman, anjirga ayri bo'lasan!  
– Meni nima aybm bor? Ko'rganimni aytayman.  
Do'xtir, menam ko'rganimni aytay, tomosha oxirida haligi oyposhshani ikki dugonasi ke-

Mulla XUNOB

Husan SODIQOV  
chizgan rasm.

## TILBILIM


## KELINOYIMI, YANGAMI YO CHECHA?

Yosh avlod har doim zamonaviy so'zlardan foydalanishga intiladi, ba'zi yoshlarimiz agar bir qadam ortda qolgan bo'lsa ishlatasa go'yo o'zini zamondan ortda qolganday his etadi. So'zlar esa, shu taxlit unutilib boraveradi.

Kelinoi, yanga, checha deb, avvalo, akaning xotini-ga nisbatan aytilsa-da, har qanday yoshi ulug' qarindosh, yaqin inson ayoliga nisbatan, hatto begonalarga ham hurmat yuzasidan shunday murojaat etish mumkin.

Xo'sh, nega "kelinoi" deyiladi? Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida "kelin" ("k31in") so'zi bor, ammo "kelinoi" yoki uning boshqa shakllari uchramaydi. Bizningcha, "kelin" – "kelmoq" fe'lidan yasalgan, ya'ni oilaning tashqaridan kelib qo'shingan a'zosi. Ruscha "nevesta" so'zining lug'aviy ma'nosi ham mantiqan "kelin"ga o'xshab ketadi. Muta-xassislarga ko'ra, "nevesta" – "neizvestnaya", ya'ni "noma'lum", "ilgari ko'ril-magan", "yangi" ma'nolaridagi "ne vesta" ("ne" bo'lishsizlik qo'shimchasi va "vedat" fe'lidan) so'zidan yasalgan.

Slavyan xalqlaridan farqli o'laroq, bizda azaldan quda-andachilikning yozil-magan tartib-qoidalari bo'lgan: aytaylik, turmush o'r-tog'ining ota-onasi – "qayin ota", "qayin ona" deb kelin yo kuyovning o'z ota-onasiga tenglashtirilgan, oilaning boshqa a'zolari



Ba'zi lahjalarda, ko'proq Farg'ona vodiysi va Toshkent shevalarida, akaning xotiniga nisbatan "kelinoi" yoki qisqartirib "kenoyi" deb, boshqa hududlarda "yanga" yoki "checha" deb murojaat qilinadi. Shuningdek, mahalliy so'zlashuvlarda ularning turli (jengge, yengge, yengebiye, cheche, sheshe, gelimbii va hokazo) ko'rinishlari mavjud. Ma'nodosh so'zlarning ko'pligi tilimiz boyligidir va ularni asrab-avaylash joiz. Ammo oynai jahon va radio, matbuot va adabiy matnlarda "yanga" va "checha"ga nisbatan "kelinoi"ga biron ustunlik berilishi sir emas.

ham: qayin + og'a / uka / opa /singil /bika shaklida tug'ishganlar qatorida ko'rilgan. Yosh qiz boshqa oilaga kelin bo'lib tush-ganda, yotsiramasiqli, tez-roq qo'shilib ketishi uchun uni: "kelin poshsha", "kelin buvi", "kelin bola", "kelin bika" va hokazo sifatlar bilan rag'batlantirishgan. "Kelin oyi" deyish esa, mantiqan oilaning kichik a'zolari tomonidan akaning (yoshi ulug' qarindoshning) xotinini ham ona qatori hurmatlanishi belgisidir.

Shuningdek, turkiy xalqlarda azaldan qalin berish udumi bor. Ammo "kelinga beriladigan sep" ma'nosidagi "qalin"ning tilimizdagi boshqa bir so'z – "yo'g'on", "ko'p" kabi ma'nolarni bildiruvchi "qalin"ga aloqasi yo'q, ular shakldosh so'zlar, xolos. "Keling beriladigan sep" ma'nosidagi "qalin" so'zining "qolmoq" fe'lidan yasalganligi haqiqatga ya-qinroq, ya'ni qalin yosh qiz-ning boshqa oilada farzand bo'lib qolishi kafolati sifatida berilgan. "Devonu lug'otit-

turk"da "qalin" – "qaling" shaklida yozilgan va shunday izohlangan: " qalīh – qalin, sep. She'rda shunday kelgan:

Bärdim sähä qalīh  
Ömdi munī alīh  
Ömgäk mähni bīlīh  
Ög'rar to'ho'r barg'alī.

Kuyov qaynotasiga ayta-di: sizga qalin berdim, buni oling. Bu molni to'plashdagi qiyinchiliklarimni tushuning. Qaynota aytadi: u ketish oldida turibdi, ketmoqchi bo'lyapti-ku (ya'ni qiz olib ketish uchun o'rog'liq tayyor

turibdi – A.H.). Boshqacha aytganda, kuyov qalin berish bilan muayyan majburiyat-larni zimmasiga olayotganini qaynotaga bildirmoqda.

Ilgari "yanga" so'zi deyarli barcha hududlarda mavjud bo'lgan, hatto "akaning xotini" ma'nosida tojik tiliga ham o'tgan. "Devonu lug'otit-turk"da ham: "jaŋga – yanga. U katta akaning xotini", deb izohlangan. Demak, ming yil oldin ham "akaning xotini" ma'nosida "yanga" so'zi ishlatilgan. Bizningcha, "yanga" ("jengge", "yenge") ham qachonlardir "kelin" singari "oilaning yangi a'zosi" ma'nosida "yangi" so'zidan kelib chiqqan. Shevadagi "yanga-biyi", "yanganullo" kabi shakllari "kelinoi", "kelin-poshsho"ga muvofiq keladi.

"Boburnoma"da Bobur bir o'rinda: "Habiba Sultonbegimni "yanga" der edim", deb yozadi. Habiba Sultonbegim – Movarounnahr hukmdori temuriyozda Sulton Ahmad Mirzoning kichik xotini. Sulton Ahmad Mirzo Boburga amakivachcha bo'lgan, shu bois Bobur Habiba Sultonbegimga "yanga" deb murojaat qilgan. Boshqa bir o'rinda esa shunday deyiladi: "...yana yanga chechamningkim, Zaynab Sultonbegim bo'lg'ay, nabirasi kelib, Tu'tadin o'tib, mahallot yoqasida daryo qirg'og'ida tushub edilar, borib, namozi digar bila namozi shom orasida ko'rdim". Bu yerda Bobur 1528-yili Hindistonga temuriyozda malikalari, ya'ni ammalari kelgani va ular bilan ko'rishgani haqida so'z yuritmoqda. Xo'sh, nima

sababdan bu yerda Bobur "yangam" yoki "checham" emas, "yanga checham" degan?

Yuqoridagi aytilganidek, "checha", "yanga" va "kelinoi" sinonim so'zlardir. "Checha" ba'zi shevalarda "cheche", qo'ng'irotlarda "sheshe" deb talaffuz etiladi, ayni paytda, qozoq qardosh-larimiz "sheshe" deb "ona"ni aytishadi. Ba'zi shevalarda "jeja" deganda "o'gay ona" tushuniladi. "O'zbek xalq shevalari lug'ati" kitobida yozilishicha, "checha" deb Andijon shevasida "opa"ga nisbatan aytilgan. Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, "Boburnoma"dagi "yanga checham" ham xuddi "kelinoi" singari so'z birikmasidir va uni "katta yangam" deb tushunish mumkin, unda "checha" deganda uning "opa", "ona" kabi ma'nolari ko'zda tutilgan.

Adabiyotda "checha" so'ziga biz xalq og'zaki ijodi, xalq dostonlarida ko'proq duch kelamiz. Keyingi paytlarda "checha", "chechajon" so'zlari ishtirokida ba'zan sahna asarlari, qo'shiqlar ham yaratilayotgani quvonarli. Xullas, ming yillardan buyon tilimizda yashab kelayotgan bu go'zal so'zlarni asrab-avaylashimiz, buning uchun esa ularning iste'moldan chiqib ketishiga yo'l qo'ymasligimiz, nutqimizda ularning har biridan ma'nodosh so'zlar sifatida foydalanishimiz maqsadga muvofiq.

Abduvohid HAYIT

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON  
YOZUVCHILAR UYUSHMASIRESPUBLIKA MA'NAVIYAT  
VA MA'RIFAT MARKAZIO'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
FANLAR AKADEMIYASIMILLIY MASS-MEDIANI  
QO'LLAB-QUVVATLASH  
VA RIVOJLANTIRISH  
JAMOAT FONDI"SHAHIDLAR XOTIRASI"  
JAMOAT FONDIBosh muharrir:  
Iqbol MirzoBosh muharrirning  
birinchi o'rinbosari:  
Humoyun AkbarovNavbatchi muharrir:  
Gulchehra UmarovaSahifalovchi:  
Erkin Yodgorov  
Nigora ToshevaMuallif fikri tahririyat  
nuqtai nazaridan farqlanishi  
mumkin.Gazeta 2023-yil 26-dekabrda  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan  
195115 raqam bilan ro'yxatga  
olingan.Kiril yozuvidagi adadi – 5908  
Lotin yozuvidagi adadi – 11905  
Buyurtma: G – 340.Hajmi: 4 bosma taboq, A2.  
Nashr ko'rsatkichi – 222.  
Tashkilotlar uchun – 223.  
1 2 3 4 5 6Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Shayxontohur tumani,  
Navoiy ko'chasi, 69-uyTelefonlar:  
Qabulxonasi: (71) 203-24-20  
Devonxonasi: (97) 745-03-69  
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17  
Jadid\_gazetasi@exat.uz"Sharq" nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasi.Bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.Bosishga topshirish vaqti: 21:00  
Bosishga topshirildi: 19:45  
Sotuvda narxi erkin.